

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT VA MENEJMENT” KAFEDRASI

MAKROIQTISODIYOT

fanidan

MASHQ va MASALALAR TO'PLAMI

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent - 2025

Tuzuvchi:

Imamova N.A. - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Sultanova L.Sh. O‘zbekiston Milliy Universiteti
“Makroiqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Kamilova M.X. TDSHU “Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedrasi
dotsenti, i.f.n.

Ushbu o‘quv-ulubiy qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2025-yilning 20-martdagi 66-UM-sonlibuyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma “Makroiqtisodiyot” fanidan mashq va masalalar to‘plami bo‘lib, u o‘z ichiga “Makroiqtisodiyot” fanining predmeti va ob’ekti, makroiqtisodiy holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlar, yalpi talab va yalpi taklifga ta’sir etuvchi omillar, iste’mol, jamg‘arish, investisiya funksiyalari, makroiqtisodiy beqarorlik, davriy tebranishlarning turlari, ishsizlik tushunchasining mohiyati. ishsizlikning ko‘rinishlari, inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari va iqtisodiy oqibatlari, pul tushunchasi va pul bozori, iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi, pul-kredit siyosatining maqsadlari va dastaklari, fiskal siyosatning mohiyati va usullari, iqtisodiy o‘sishning mohiyati va unga ta’sir etuvchi omillar kabi mavzularni qamrab olgan.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma TDShU 60411100-Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar, 60411400-Mamlakatshunoslik, 60410100-Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi talabalari, shuningdek, makroiqtisodiyot muammolari bilan qiziquvchilar uchun foydali qo‘llanma hisoblanadi.

O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMANING TARKIBI

1. Tushunchalar va tayanch iboralar
2. Muhokama uchun savollar
3. Mashqlar va masalalar
4. Keyslar
5. Testlar
6. Glossariy

1-MAVZU. “MAKROIQTISODIYOT” FANINING PREDMETI VA OB’EKTI

Tushunchalar va tayanch iboralar

Makroiqtisodiyot fani, mikroiqtisodiyot fani, klassiklar maktabi, keysnschilar maktabi, makroiqtisodiyot fanining predmeti, iqtisodiy modellar, makroiqtisodiy modellar, uy xo‘jaliklari sektori, korxonalar yoki firmalar sektori, davlat sektori, chet el sektori.

Muhokama uchun savollar

1. Makroiqtisodiyot fani va uning kelib chiqish bo‘yicha fikrlaringizni bayon qiling.
2. Makroiqtisodiyotning va mikroiqtisodiyotning o‘xshash va farqli jihatlari.
3. Fan predmeti, ob’ekti, subyektlari hamda boshqa fanlar bilan aloqalari nimalardan iborat?
4. Resurslar, tovarlar hamda xizmatlar va daromadlar doiraviy aylanishi modellarini tahlil qiling.

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilang.

1. Makroiqtisodiyot iqtisodiy jarayonlarni milliy darajada o‘rganadi.
2. U faqat alohida firmalar va ularning strategiyalarini tahlil qiladi.
3. Inflyatsiya, ishsizlik va yalpi talab bu fanning asosiy tushunchalaridir.
4. Davlatning fiskal va monetar siyosati mikroiqtisodiyotning tadqiqot ob’yekti hisoblanadi.
5. Iqtisodiy o‘sish faqat mikroiqtisodiyot doirasida tahlil qilinadi.
6. Makroiqtisodiyotda yalpi ishlab chiqarish va milliy daromad muhim rol o‘ynaydi.
7. Pul-kredit siyosati faqat bank tizimi uchun dolzarb hisoblanadi.


8. Iqtisodiy barqarorlik va siyosiy omillar ham o'rganiladi.
9. Ishsizlik va inflyatsiya iqtisodiyotga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.
10. Makroiqtisodiyot faqat milliy iqtisodiyotning eksport-import muammolarini o'rganadi.
11. Makroiqtisodiyot jamiyatdagi umumiyligi iqtisodiy jarayonlarni, jumladan, yalpi talab va yalpi taklifni o'rganadi.
12. Inflatsiya narxlar umumiyligi darajasining doimiy oshishini anglatadi.
13. Monetar siyosat Markaziy bank tomonidan pul massasi va foiz stavkalarini tartibga solish orqali amalga oshiriladi.
14. Ishsizlik darajasi mamlakatdagi umumiyligi iqtisodiy faoliyat bilan bevosita bog'liq va turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi.
15. Fiskal siyosat faqat Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

Chizmalarni tahlil qiling:

1-chizma. Sof bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslar, tovarlar va daromadlarning doiraviy aylanishi



2-chizma. Resurslar, tovarlar va daromadlar aralash iqtisodiy tizimidagi doiraviy aylanishi



TESTLAR

1. Makroiqtisodiyotning predmeti nima?

- a) Tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni boshqarish
- b) Xalqaro iqtisodiy aloqalar
- c) Iqtisodiy tizimning umumiy ko‘rsatkichlari va makroiqtisodiy jarayonlar
- d) Har bir individual kompaniya faoliyati

2. Makroiqtisodiyotda quyidagi sohalardan qaysi biri o‘rganiladi?

- a) Tashqi savdo va investitsiyalar
- b) Narxlar va ishlab chiqarish miqdori
- c) Xalqaro valyuta bozori
- d) Individual iste’molchilar xatti-harakatlari

3. Makroiqtisodiyotda qaysi ko‘rsatkichlar asosiy hisoblanadi?

- a) Yalpi ichki mahsulot (YaIM) va inflyatsiya
- b) Iste’mol va jamg‘arma miqdori
- c) Xizmatlar va tovarlar narxlari
- d) Raqobat darajasi

4. Makroiqtisodiyotning ob’ekti nima?

- a) Individuallar va ularning xatti-harakatlari
- b) Davlat va uning byudjeti
- c) Iqtisodiy tizimning umumiy holati va makroiqtisodiy jarayonlar
- d) Faqat ishchi kuchi

5. Makroiqtisodiyotda o‘rganiladigan asosiy masala nima?

- a) Yalpi talab va taklif muvozanati
- b) Aholi turmush darajasi
- c) Xalqaro iqtisodiy aloqalar
- d) Tovarlarni ishlab chiqarish jarayonlari

6. Makroiqtisodiy tahlilda qanday ko‘rsatkichlar ishlataladi?

- a) Milliy ishlab chiqarish hajmi, inflyatsiya, ishsizlik darajasi
- b) Korxona xarajatlari, narxlar va foiz stavkalari
- c) Boshqaruvin tizimi va ishchi kuchi
- d) Faqat soliq stavkalari

7. Makroiqtisodiyotda qaysi omillar tahlil qilinadi?

- a) Mehnat bozoridagi individual qarorlar
- b) Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘sish
- c) Xalqaro savdo operatsiyalari
- d) Tovar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar daromadi

8. Makroiqtisodiy tahlilni amalga oshiradigan asosiy institutsiya kim?

- a) Yagona davlat organi
- b) Markaziy bank va iqtisodiy institutlar
- c) Yagona yirik kompaniya
- d) Xususiy iqtisodchilar guruhlari

9. Makroiqtisodiy siyosat maqsadi nimalardan iborat?

- a) Iqtisodiy o‘sishga erishish
- b) Individual iste’molchilarni boshqarish
- c) Davlat byudjeti va soliqlarni oshirish
- d) Iqtisodiy barqarorlikni saqlash

10. Makroiqtisodiyotda asosiy tahlil qilishning maqsadi nima?

- a) Bozor narxlarini belgilash
- b) Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash
- c) Aholining daromadlarini oshirish
- d) Tovar ishlab chiqarishni cheklash

GLOSSARIY

	Atama o‘zbek tilida	Atama ingliz tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma’nosi
1.	<i>Makroiqtisodiyot fani</i>	<i>Macro economy</i>	<i>Макроэкономика</i>	o‘z navbatida keng ko‘lamdagi iqtisodiyot bilan shug‘ullanadi. Uning ob’ekti milliy iqtisodiyot ko‘lamida yalpi ishlab chiqarish, bandlik, inflyatsiya va tashqi savdo, boshqacha aytganda, resurs,

				tovar va daromadlar doiraviy aylanishi hisoblanadi.
2.	<i>Mikro iqtisodiyot fani</i>	<i>Micro economy</i>	<i>Микроэкономика</i>	muayyan iqtisodiy birlikni to‘liq tahlil qiladi va iqtisodning quyi bosqichda qanday va nima sababdan xatti-xarakat amalga oshirilishini tushuntirib beradi.
3.	<i>Klassiklar maktabi</i>	<i>School of classics</i>	<i>Школа классиков</i>	erkin bozor mexanizmlari mehnat bozorida iqtisodiy muvozanatni o‘rnatalishiga va buning oqibatida resurslarni samarali taqsimlanishiga o‘zлari kifoya qilishini hamda bu jarayonga davlatning aralashuvi kerak emasligini tahmin qiladi.
4.	<i>Keynschilar maktabi</i>	<i>School of Keynes</i>	<i>Школа Кейнса</i>	narxlarning ma’lum bir qisqa davr mobaynida egilmasligidan kelib chiqib ayniqsa mehnat bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish uchun bozor mexanizmlarini o‘zларини yetarli emasligini ta’kidlashadi. Buning natijasida davlat aralashuviga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bunday aralashuv barqarorlashtirish siyosati nomini oladi.
5.	<i>Makro iqtisodiyot fanining predmeti</i>	<i>Subject of macro economy</i>	<i>Предмет макро экономики</i>	Bu o‘quv fani mamlakat iqtisodiyoti va yalpi ishlab chiqarishning o‘sishi, pasayishi, turg‘unlik davrlarini iqtisodiy tahlil

				qiladi va uni tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini yaratadi.
6.	Iqtisodiy modellar	Economic models	Экономические модели	Amaliyotdagi jarayonlarning soddalashtirilgan ko‘rinishidir. Modellashtirishda ahamiyatsiz omillar olib tashlanadi. Modellaradan iqtisodiy birliklar o‘rtasidagi aloqani o‘rganish uchun, iqtisodiy xatti-xarakatni tushuntirish uchun, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda foydalilanadi.
7.	Makroiqtisodiy modellar	Macro economic models	Макроэкономические модели	u yoki bu iqtisodiy jarayonning umumlashgan, soddalashgan kurinishini ifodalaydi. Makroiqtisodiyot fanidan aksariyat darsliklarda bu modellardan bиринчи bo’lib resurslar, tovarlar va daromadlar doiraviy aylanishi modeli keltiriladi.
8.	Uy xo‘jaliklari sektori	Sector of house-holders	Сектор домохозяйств	bu sektor ishlab chiqarish omillarini, ya’ni yer, kapital va mehnatni taklif qiladi va moddiy ne’matlarga bo‘lgan talabni shakllantiradi, olingan daromadning bir qismini iste’mol qiladi, boshqa qismini esa jamg‘aradi. Uy xo‘jaliklarilarning asosiy maqsadi minimal xarajatlar evaziga maksimal afzallikga ega bo‘lish;

9.	<i>Korxonalar yoki firmalar sektori</i>	<i>Sector of producers</i>	<i>Сектор производителей</i>	iqtisodiyotdagi barcha korxonalar majmuasi bo'lib, bu sektor ishlab chiqarish omillariga bo'lgan talabni shakllantiradi, moddiy ne'matlarni ishlab chiqadi va taklif qiladi xamda investisiyalarni amalga oshiradi. Asosiy maqsadi foydani maksimallashtirish;
10.	<i>Davlat sektori</i>	<i>Sector of government</i>	<i>Государственный сектор</i>	xavfsizlik, fan taraqqiyoti va infratuzilma xizmatlari kabi ijtimoiy ne'matlarni taklif qiladi. Davlat sektori odatda foydani maksimlashtrish maqsadini ko'zlamaydi, uning asosiy maqsadi iqtisodiyotni optimal xarakatlanishi uchun sharoitlar yaratish. Bunda davlat makroiqtisodiy sub'ekt rolida ne'matlarni ishlab chiqadi va xarid qiladi, soliq soladi, transfertlar to'laydi va pul taklifini shakllantiradi.
11.	<i>Chet el sektori</i>	<i>Foreign sector</i>	<i>Иностранный сектор</i>	xorijiy iqtisodiy sub'ektlar va davlat institutlari majmuasi. Bu sektorni tadqiq qilishdan asosiy maqsad to'lov balansiga va valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillarni o'rGANISH.

2- MAVZU: MAKROIQTISODIY HOLATNI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR

Tushunchalar va tayanch iboralar

Milliy hisob tizimi, YaIM, YaMM, xarajatlar bo'yicha YaIM, daromadlar bo'yicha YaIM, nominal YaIM, real YaIM, Laspeyrs va Paashe indekslari

Muhokama uchun savollar

1. Yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof ichki mahsulot, milliy daromad, shaxsiy daromad, tasarrufdagi daromad kabi ko'rsatkichlarga ta'rif bering.
2. Nominal YaIM qanday ko'rsatkich hisoblanadi?
3. Real YaIM nominal YaIMdan qanday farq qiladi?
4. Deflyator nima, uni qanday hisoblash mumkin?

Mustaqil ish mavzulari

1. YAIM ko'rsatkichining mohiyatini va uni hisoblashning asosiy shartlarini yoritib bering. Rezident, yakuniy tovarlar va xizmatlar, bozor baholari, noishlab chiqarish bitimlari, sof moliyaviy operatsiyalar, transfertlar, bir marta hisobga olish sharti, oraliq mahsulot, yakuniy mahsulot.

2. Sof bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslar, tovarlar va xizmatlar hamda daromadlarning doiraviy aylanishi modelini izohlab bering. Uy xo'jaliklari, firmalar, resurslar hamda tovarlar va xizmatlar bozori, resurslar va tovarlar oqimi, daromadlar-xarajatlar oqimi, oqimdan chetga chiqishlar va oqimga qo'shilishlarning hisobga olinmaganligi.

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

I-ilova

To'g'ri yoki noto'g'riliгини belgilang.

1. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) iqtisodiyotning umumiy hajmini o'lchaydi.
2. Makroiqtisodiyotda faqat korxonalar daromadi hisobga olinadi.
3. Ishsizlik darajasi mehnat bozorining barqarorligini ko'rsatadi.

4. Inflyatsiya darajasi narxlarning pasayish sur'atini belgilaydi.
5. Iste'mol narxlari indeksi (INI) inflyatsiya o'lchovi sifatida ishlataladi.
6. Davlat byudjeti defitsiti iqtisodiyotga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.
7. Tashqi savdo balansi eksport va import o'rtaqidagi farqni ko'rsatadi.
8. Pul massasining o'sishi doimo iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.
9. Ishlab chiqarish hajmi iqtisodiy o'sishning muhim indikatoridir.
10. Inflyatsiya va foiz stavkalari o'zaro bog'liq emas.

2-ilova

Mashqlar va masalalar:

1. Yalpi ichki mahsulot 2 ta mahsulotni o'z ichiga oladi. X-iste'mol tovari, Y-investitsiya tovari. Joriy yilda 425 birlik X tovari donasi 25 dollardan va Y tovar 75 birlik 15 dollardan ishlab chiqarildi. Joriy yilning oxiriga kelib 35 birlik foydalanilgan investitsion tovarlar yangi tur tovarlariga almashtirilishi kerak.

Hisoblang: YaIM; SIM; Sof va Yalpi investitsiya miqdorini.

2. Quyidagi ma'lumotlar mavjud; Real YAIMni hisoblang.

Yillar	Nominal YAIM, mlrd. so'm	Narxlar indeksi darajasi, %	Real YAIM, mlrd. so'm
1-yil	175	138	
2-yil	72	98	
3-yil	96	100	

3. Keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini aniqlang:

1. Ish haqiqi-194,2
2. Eksport hajmi-16,3
3. Amortizatsiya-12,7
4. Davlat xaridi- 57,4
5. Biznesga egri soliqlar-13,3
6. Tranfert to'lovleri-14,8
7. Import hajmi- 13,4

8. Foyda solig‘i-50,4
9. Shaxsiy iste’mol xarajatlari- 227,1
10. Sof investitsiyalar-56,2

5. 2023 yilda YAIM 300 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bir yildan so‘ng deflyator 1,2 martaga ortdi, real YAIM esa 10 % ga o‘sdi. 2024 - yilgi nominal YAIM hajmini toping (2023 yil -bazis yili).

6. Faraz qilaylik, faqat uch xil tovar: A, B va S ishlab chiqariladi. 2023 va 2024 yillarda ushbu tovarlarning narxi va ishlab chiqarish hajmi xaqidagi ma’lumotlar quyidagicha:

Tovar turi	2023		2024	
	Miqdor	Narx	Miqdor	Narx
A	55	25	41	30
B	45	35	42	50
S	30	40	44	60

- 1) Nominal va real YaIMni,
- 2) Iste’mol narxlari indeksi va YaIM deflyatorini (2023 yil bazis),
- 3) YaIMning o’sish sur’atini hisoblang.

7. YAIM – 7200 mlrd. so‘m. Iste’mol xarajatlari – 3800 mlrd. so‘m, davlat xarajatlari – 900 mlrd. so‘m, sof eksport – 120 mlrd. so‘m. Hisoblang.

- a) Investitsiya miqdorini
- b) Eksport 350 mlrd. so‘mga teng bo‘lganda import miqdorini
- c) Amortizatsiya 180 mlrd. so‘mga teng bo‘lganda sof ichki mahsulotni.

9. YaIM, SIM va milliy daromadni xarajatlar usulida hisoblang (mlrd. so‘mda)

Amortizasiya	20
Korporasiya foydasi	80
Biznesga egri soliqlar	10
Korporasiya foydasiga soliq	20
Dividendlar	45
Korporasiyaning taqsimlanmagan foydasi	15
Shaxsiy jamg‘armalar	35
Ish haqi	300
Eksport	40
Import	30

Tovar va xizmatlarning davlat xaridi	80
Shaxsiy iste'mol xarajatlari	320
Sof xususiy ichki investisiyalar	40
Ijara xaqi va kapitalga foizlar	30
Transfert to'lovleri	25

10. Ma'lumotlardan foydalanib shaxsiy va ixtiyordagi daromad ko'rsatkichlarini aniqlang.

Amortizasiya ajratmalari	552
Korporasiya foydasi	298
Biznesga egri soliqlar	416
YaIM	5233
Dividendlar	112
Transfert to'lovleri	600
Ijtimoiy sug'urta to'lovleri	479
Fuqarolardan daromad solig'i	649

3-ilova

KEYS: AQSH YALPI ICHKI MAHSULOTINING KOMPONENTLARI¹

Quyidagi jadvalda AQShning 2009 yildagi YaIM haqida ma'lumot berilgan. 2009 yilda YaIM hajmi 14 trln. dollarni tashkil etgan. O'sha yili mamlakat aholi soni 307 million kishini tashkil etgan. Aholi jon boshiga YaIM 46 ming 372 dollar.

Iste'mol xarajatlari YaIMning 71 foizini yoki aholi jon boshiga 32823 dollarni, investisiya xarajatlari 5278 dollarni, davlat xarajatlari 9540 dollarni, sof eksport -1269 dollarni tashkil etgan. Sof eksportning salbiy saldog'a egaligining sababi, amerika fuqorolari chet el tovarlariga ko'proq xarajat qiladilar, chet elliklar AQSh tovarlariga xarajat qilganlariga nisbatan.

Quyidagi jadvalning bo'sh ustunlarini to'ldiring. Eng katta ulushga ega bo'lgan komponentni aniqlang.

¹ Principles of Economics, 6 Edition. N. Gregory Mankiw. ISBN 13: 978-0-538-45305-9. USA. 2012. Cengage Learning. Page 499.

Komponentlar	YaIM hajmi, mlrd. dollarda	YaIM aholi jon boshiga, dollarda	YaIMga nisbatan foizda
YaIM, Yield	14,259	46,372	100
Iste'mol xarajatlari, Consumption	10,093	32,823	
Investisiya xarajatlari, Investment gross	1,623	5,278	
Davlat xarajatlari, Government	2,933	9,540	
Sof eksport, Net export	-390	-1,269	

4-ilova

TESTLAR

1. **Yalpi ichki mahsulot (YaIM) qanday ko'rsatkichni ifodalaydi?**
 - a) Davlat xarajatlarini
 - b) Mamlakatdagi umumiy ishlab chiqarish hajmini
 - c) Xalqaro savdoni
 - d) Inflyatsiya darajasini
2. **YaIM o'sishi iqtisodiy barqarorlikni ko'rsatuvchi belgi sifatida qanday ishlataladi?**
 - a) Iqtisodiy o'sish va rivojlanishni
 - b) Davlatning soliqqa tortish siyosatini
 - c) Tovar va xizmatlar narxining oshishini
 - d) Aholining mehnat unumdorligini
3. **Inflatsiya darjasini qanday ko'rsatkichni ifodalaydi?**
 - a) Ishlab chiqarishning ortishi
 - b) Narxlarning o'sish darjasini
 - c) Xalqaro savdoning ko'payishini
 - d) Aholi daromadlarining pasayishi
4. **Qaysi ko'rsatkich iqtisodiy holatni o'lchashda ishlataladi?**
 - a) Yalpi ichki mahsulot (YaIM)
 - b) Tovarlar va xizmatlar sifati
 - c) Davlat daromadlari
 - d) Davlat xarajatlari

5. Ishchi kuchi qanday aniqlanadi?

- a) Ish bilan bandlar soni bilan
- b) Iqtisodiyotdagi umumiyl o'sish bilan
- c) Ish qidirayotgan ishsizlar hamda bandlar soni bilan
- d) Aholi sonining o'sishi bilan

6. YaIM ning nominal va real shakllari orasidagi farq nima?

- a) Nominal YaIM inflyatsiya ta'sirini hisobga oladi
- b) Real YaIM inflyatsiya ta'sirini hisobga olmaydi
- c) Nominal YaIM iqtisodiy o'sishni ko'rsatadi
- d) Real YaIM yuqori qiymatga ega

7. Pul taklifi va inflyatsiya o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

- a) Pul taklifining ko'payishi inflyatsiyani kamaytiradi
- b) Pul taklifining ko'payishi inflyatsiyani oshirishi mumkin
- c) Pul taklifi va inflyatsiya bir-biriga ta'sir qilmaydi
- d) Inflyatsiya faqat soliq siyosatiga bog'liq

8. Narxlar indeksining oshishi iqtisodiy holatni qanday ta'sir qiladi?

- a) Inflyatsiya kamayadi
- b) Inflyatsiya oshadi
- c) Ishsizlik darajasi oshadi
- d) Yalpi ichki mahsulot pasayadi

9. Iqtisodiy o'sishni ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri nima?

- a) Yalpi ichki mahsulot (YaIM)
- b) Aholi soni
- c) Tovarlar va xizmatlar narxi
- d) Soliq stavkasi

10. Makroiqtisodiy holatni o'lchashda qaysi ko'rsatkichlar asosiy hisoblanadi?

- a) Narxlar indeksi va foiz stavkalari
- b) Yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya, ishsizlik
- c) Faoliyat ko'rsatkichlari va daromadlar
- d) Xalqaro savdo va eksport hajmi

GLOSSARY

	Atama o'zbek tilida	Atama ingliz tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma'nosi
1.	<i>Milliy hisob tizimi</i>	<i>National accounting system</i>	<i>Система национальных счетов</i>	davlat tomonidan umumiqtisodiy faoliyatni tahlil qilish maqsadida yig'ilgan ma'lumotlar to'plamidir. Milliy hisob tizimi universal xarakterga ega bo'lib, turli mamlakatlarda ma'lumot almashinushi jarayonida foydalilanadi va xalqaro taqqoslash imkonini beradi.
2.	<i>Yalpi ichki mahsulot</i>	<i>Gross domestic product,G DP</i>	<i>Валовой внутренний продукт</i>	bu bir mamlakat ichkarisida ma'lum vaqt davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymatlarining yig'indisidir. Mamlakat ichkarisida yaratilgan xar qanday tovar yoki xizmat, u milliy yoki xorijiy korxonada ishlab chiqarilganligidan qat'iy nazar, YaIM tarkibiga kiritiladi.
3.	<i>Yalpi milliy mahsulot</i>	<i>Gross national product,G NP</i>	<i>Валовой национальный продукт</i>	- bu mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum vaqt mobaynida ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymatlarining yig'indisidir. YaMMga mamlakat ichkarisidagi hamda xorijdagi ushbu mamlakat rezidentlari, korxonalarini tomonidan

				yaratilgan tovarlar va xizmatlar yig‘indisi ham kiritiladi.
4.	<i>Nominal YAIM</i>	<i>Nominal GDP</i>	Номинальный ВВП	bu YaIMning joriy narxlarda ifodalangan ko’rsatkichidir.
5.	<i>Real YAIM</i>	<i>Real GDP</i>	Реальный ВВП	bu YaIMning bazis davrdagi narxlarda ifodalangan ko’rsatgichidir.
6.	<i>Laspeyrs indeksi(IL)</i>	<i>Index of Lispers</i>	Индекс Ласпейрс	o‘zgarmas tovar turlari yoki o‘zgarmas og‘irlik indekslari. Masalan iste’mol narxlari indeksi(INI): o‘zgarmas iste’mol savatchasi, joriy va bazis davr narxlari hisobga olib topish mumkin:
7.	<i>Paashe indeksi (Ip)</i>	<i>Index of Passé</i>	Индекс Пааше	o‘zgaruvchan tovar yoki o‘zgaruvchan og‘irlik indekslari. Masalan, YAIM deflyatori joriy vaqtda ishlab chiqilgan tovarlarning joriy miqdorini bazis miqdorga nisbati:
8.	<i>Ochiq iqtisodiyot</i>	<i>Open economy</i>	Открытая экономика	bu shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi berdilari cheklanmagan xolda amalga oshirishlari mumkin.
9.	<i>Yopiq iqtisodiyot</i>	<i>Closed economy</i>	Закрытая экономика	mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida xalqaro savdoda umuman ishtirok etmaydi. Ta’kidlash lozimki, xozirgi davrda iqtisodiyotning ikkala turlari xam sof xolda mavjud emas, chunki dunyodagi barcha mamlakatlar xalqaro savdoga ma’lum bir darajada qatnashib keladi va

				ozmi ko‘pmi <i>erkin savdoga</i> cheklovlar o‘rnatadi.
10.	<i>Sof ichki mahsulot</i>	<i>Net domestic product, N DP</i>	Чистый внутренний продукт	YaIMdan amortizatsiya ajratmalarini ayirish orqali hosil qilinadi. Boshqacha qilib aytganda sof ichki mahsulotni xarajatlar usuli bilan hisoblaganda quyidagicha ifodalash mumkin: $SIM = C+In+G+NX$
11.	<i>Milliy daromad-MD</i>	<i>National income, NI</i>	Национальный доход	SIMdan egri soliqlarni ayirish orqali hosil qilinadi. Milliy daromad mahsulotning shunday umumiy qiymatini ko‘rsatadiki, bunda mahsulot egalari sotuvdan tushgan tushumni daromad sifatida qabul qilishadi.
12.	<i>Shaxsiy daromad -</i>	<i>Personal income, PI</i>	Личный доход	milliy daromaddan korxona yoki firmaning foyda solig‘i, foiz va dividendlar to‘lab bo‘linganidan keyin qolgan foydasi, ijtimoiy sug‘urta badallari va dividendlarini ayirish va davlat tomonidan transfer to‘lovlarini qo‘shish orqali hosil qilinadi.
13.	<i>Tasarrufdagi daromad</i>	<i>Disposable income, DI</i>	Располагаемый доход	shaxsiy daromaddan fuqarolar tomonidan to‘lanadigan barcha individual soliqlarni ayirish orqali hosil qilinadi.

3-MAVZU: YALPI TALAB VA YALPI TAKLIFGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Tushunchalar va tayanch iboralar

Yalpi talab, yalpi taklif, "AD-AS" modeli, narxlar darajasi, yiriklashtirish, yalpi talab egri chizig'i, foiz stavkasi samarasi, boylik samarasi, yalpi taklif, yalpi taklif egri chizig'i, vertikal kesma, oraliq kesma, gorizontal kesma, narxlarning noelastikligi samarasi.

Muhokama uchun savollar

1. Yalpi talab nima, yalpi talab egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?
2. Yalpi taklif nima, yalpi taklif egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?
3. "AD-AS" modelini tushuntiring.
4. Narxlarning noelastikligi samarasini izohlang.

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To‘g‘ri yoki noto‘g‘riliгини belgilang.

1. Yalpi talab iqtisodiyotdagi umumiylab chiqarish hajmini ifodalaydi.
2. Narxlar darajasi oshganda, yalpi talab egri chizig'i chapga siljiydi.
3. Foiz stavkasi samarasi bo'yicha, foiz stavkalari pasaysa, investitsiyalar kamayadi.
4. Yalpi taklif egri chizig'i uzoq muddatda vertikal shaklga ega bo'ladi.
5. Boylik samarasi faqat yuqori daromadli odamlarning xarid qobiliyatiga ta'sir qiladi.
6. AD-AS modeli faqat qisqa muddatli iqtisodiy jarayonlarni tahlil qiladi.
7. Gorizontal kesma iqtisodiyot ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan holatda kuzatiladi.
8. Oraliq kesmada ishlab chiqarish hajmi narx darajasiga bog'liq emas.

9. Narxlarning noelastikligi samarasi tufayli ish haqi va boshqa xarajatlar tezda pasaymaydi.

10. Vertikal kesma yalpi taklif egri chizig‘ining qisqa muddatli qismi hisoblanadi.

11. Yalpi talab egri chizig‘i pasayuvchi shaklda bo‘ladi, chunki narxlar oshganda talab kamayadi.

12. Narxlar darajasi pasaysa, foiz stavkalari oshadi.

13. Yalpi taklif doimo doimiy bo‘lib, iqtisodiyotning hajmi o‘zgarmaydi.

14. Foiz stavkasi samarasi pul bozori va investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

15. AD-AS modeli yordamida inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishni tahlil qilish mumkin.

2-illova

Yalpi taklifni ifodalovchi ko‘rsatkichlar berilgan

Narxlar darajasi	Ishlab chiqarilgan real YaIM
300	2000
300	2000
250	1900
225	1700
180	1400
100	1000
100	500
0	0

Aniqlang:

1. Yalpi taklif egri chizig‘ining keyns kesimida real YaIM hajmi qanday o‘zgaradi?

2. Yalpi taklif egri chizig‘ining klassik kesimida narxlar darajasi va real YaIM xajmi qanday o‘zgaradi?

3. Yalpi taklif egri chizig‘ining oraliq kesimida real YaIM hajmi qanday o‘zgaradi?

TESTLAR

1. **Yalpi talab (AD) nima?**

- a) Yalpi ichki mahsulotning umumiy qiymati
- b) Bozor talabining umumiy miqdori
- c) Narxlar darajasining pasayishi
- d) Mamlakatning umumiy iste'mol va investitsiyalari

Yalpi talabni oshiruvchi omil nima?

- a) Inflyatsiya darajasining pasayishi
- b) Foiz stavkalarining oshishi
- c) Davlat xarajatlarining oshishi
- d) Ishsizlik darajasining oshishi

2. **Yalpi taklif (AS) qanday ko'rsatkichni ifodalaydi?**

- a) Iqtisodiy o'sishni
- b) Tovarlar va xizmatlarning umumiy miqdori
- c) Aholining daromadlari
- d) Narxlar darajasining o'zgarishini

3. **Yalpi taklifni pasaytiruvchi omil qaysi biri?**

- a) Ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi
- b) Texnologik taraqqiyot
- c) Sarmoyalar hajmining oshishi
- d) Davlat xarajatlarining ko'payishi

4. **Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat o'zgarishi iqtisodiy holatga qanday ta'sir qiladi?**

- a) Yalpi ichki mahsulot oshadi
- b) Ishsizlik darjasini pasayadi
- c) Inflyatsiya kamayadi
- d) Iqtisodiy o'sish sekinlashadi

5. **Yalpi talabni pasaytiruvchi omil nima?**

- a) Soliq stavkalarining oshishi
- b) Foiz stavkalarining pasayishi
- c) Davlat xarajatlarining oshishi
- d) Xalqaro savdoning rivojlanishi

6. **Qaysi omil yalpi taklifni oshirishi mumkin?**

- a) Ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashuvi
- b) Ishsizlikning ko'payishi

- c) Davlat xarajatlarining kamayishi
d) Narxlar darajasining oshishi
- 7. Yalpi talabni pasaytiradigan makroiqtisodiy omil nima?**
- a) Davlat xarajatlarining kamayishi
b) Mehnat unumдорligining oshishi
c) Narxlarning pasayishi
d) Inflyatsiyaning pasayishi
- 8. Foiz stavkalarining o‘zgarishi qaysi ko‘rsatkichga ta’sir qiladi?**
- a) Yalpi talabga
b) Yalpi taklifga
c) Faqat tovarlar narxiga
d) Ishlab chiqarishning miqdoriga
- 9. Yalpi talabning oshishi iqtisodiyotga qanday ta’sir qiladi?**
- a) Narxlarning o‘sishiga olib keladi
b) Ishsizlik darajasini kamaytiradi
c) Yalpi ichki mahsulotni kamaytiradi
d) Tovarlar va xizmatlar narxlarini pastlashtiradi

4-ilova

Mustaqil ishlash uchun

O‘tgan yili potensial YaIM 4000 sh.b.ni tashkil etdi, yalpi talab tenglamasi quyidagicha $Y=4200-2P$. Joriy yilda potensial YaIM 1% ga o‘sdi va quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi $Y=4280-2P$. Joriy davrda narxlar darjasini necha foizga o‘sganini aniqlang.

GLOSSARIY

	Atama o‘zbek tilida	Atama ingliz tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma’nosи
1.	<i>Yalpi talab</i>	<i>Aggregate demand</i>	<i>Совокупны й спрос</i>	turli narxlar sharoitida davlat, uy xo‘jaliklari, korxonalar sotib olishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarning yalpi xajmidir.

2.	<i>Makroiqtisodiy barqarorlik</i>	<i>Macroeconomic stability</i>	<i>Макроэкономическая стабильность</i>	iqtisodiy inqirozlarga barham berish, iqtisodiy taraqqiyotni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni muayyan darajada saqlab turish va iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish tushuniladi.
3.	<i>Narxlar darajasi</i>	<i>Price level</i>	<i>Уровень цен</i>	turli xil tovar va xizmatlarning alohida narxlarini umumlash-tiruvchi jami narx tushuniladi.
4.	<i>Yalpi talab egri chizig‘i</i>	<i>Aggregate demand curve</i>	<i>Кривая совокупного спроса</i>	Narxlar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o‘rtasida bog‘liqlikni ifoda etuvchi chiziq
5.	<i>Foiz stavkasi samarasi</i>	<i>The Interest-Rate Effect</i>	<i>Эффект процентной ставки</i>	shuni bildiradiki, agarda mamlakatda pul massasi hajmi doimiy deb faraz qilinsa, narxlar o‘sib borayotgan bo‘lsa, bunday holatda aholi va korhonalarining harakatlari uchun ko‘proq pul kerak bo‘ladi. Bu esa pulga bo‘lgan talabni oshiradi, demak uning narxi, ya’ni foiz stavkasi ko‘tarilishiga olib keladi va shu tufayli milliy mahsulotning real hajmiga bo‘lgan talabni qisqartiradi.
6.	<i>Boylik samarasi</i>	<i>The Wealth Effect</i>	<i>Эффект богатства</i>	shuni bildiradiki, narxlar darajasining o‘sishi bilan jamg‘arilgan pul aktivlarining (hisoblardagi omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyati tushib ketadi. Ya’ni aholi tobora kambag‘allashib boradi va tabiiyki u o‘zining tovar va xizmatlarni sotib olishga ketadigan harajatini qisqartiradi. Natijada yalpi talab ham kamayadi.

7.	<i>Import xaridlari samarasi</i>	<i>The Price Level and Net Exports: The Exchange -Rate Effect</i>	<i>Эффект импортных закупок</i>	qachonki narxlar darajasi xorijiy narxlarga nisbatan oshib borsa, mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo‘lgan talab kamayadi, import mahsulotlariga esa talab oshadi, ya’ni milliy mahsulotga bo‘lgan ehtiyoj qisqa-radi. Mamlakatda narxlar daraja-sining pasayishi importning kamayishiga va eksportning kengayishiga sabab bo‘ladi yoki boshqacha aytganda milliy mahsulotga bo‘lgan talabni oshiradi.
8.	<i>Yalpi taklif</i>	<i>Aggregate supply</i>	<i>Совокупное предложение</i>	muayyan narxlar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo‘lgan iste’mol hamda investisiya tovarlari va xizmat-larning umumiyligi miqdoridir.
9.	<i>Yalpi taklif egri chizig‘i</i>	<i>Aggregate supply curve</i>	<i>Кривая совокупного предложения</i>	Narxlar darajasi va yalpi taklif ishlab chiqarish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifoda etuvchi chiziq
10.	<i>Gorizontal kesma</i>	<i>Horizontal</i>	<i>Горизонтальный разрез</i>	iqtisodiyotda to‘liq bandlik ta’milanmaganligini, ortiqcha ishlab chiqarish kuchlari mavjudligini ko‘rsatadi, narx va ish xaqi o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bu kesmada narxlarni o‘zgartirmas-dan turib, ishga tushmagan ishlab chiqarish omillarini ishga tushirib, ishlab chiqarish xajmini oshirish mumkin.
11.	<i>Oraliq kesma</i>	<i>Interval</i>	<i>Промежуточный разрез</i>	qisman bandlik ta’milangan, narxlar va ish xaqi nisbatan o‘zgaruvchan. Bu kesmada

				ishlab chiqarish xajmini oshirish mumkin, lekin bu o'sish narxlar darajasini o'sishi bilan birgalikda bo'ladi.
12.	<i>Vertikal kesma</i>	<i>Vertical</i>	<i>Вертикальный разрез</i>	bu to'liq bandlik ta'minlangan xolatidir. Bunda keyingi ishlab chiqarish jarayonini oshirish mumkin emas, iqtisodiyotni rag'batlantirish jarayonida qilingan har qanday urinish faqatgina narxlar darajasini yuqori darajada oshishiga olib keladi.
13.	<i>Narxlar-ning noelastikligi samarasi, "Xrapovik" samarasi</i>	<i>Effect of no elastic prices</i>	<i>Эффект неэластичности цен</i>	Xrapovik samarasi bu bir mexanizmdir. U narxlarning "ortga qaytishda" noelastiklik bo'lishi, o'zgarmasligi bilan izohlanadi. Vertikal kesmaga kelganda, talab eng yuqori nuqtaga kelgan bo'ladi, davlat o'z buyurtmalari bilan ortiqcha talab hosil qila olmaydi, endi talab pasayib boradi, lekin narxlar yuqori darajaga chiqib olganda ortga qaytishi, ya'ni pasayishi juda qiyin bo'ladi. Mana shu xolatda past talab va past ishlab chiqarish xajmi endi yuqori narx-larga duch keladi. Bu vaziyatni xrapovik samarasi, ya'ni narxlarni noeastikligi, o'zgarmasligidir.

4-MAVZU: ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTISIYA FUNKSIYALARI

Tushunchalar va tayanch iboralar

Iste'mol, jamg'arish, iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik, iste'mol va jamg'arishga chegaralangan moyillik, investitsiyalar, foiz stavkasi.

Muhokama uchun savollar

1. Daromad, iste'mol va jamg'armalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiring?
2. Qanday holatda iste'mol daromadga teng bo'ladi va qanday holatda jamg'arish mavjuddir?
3. Iste'mol va jamg'arma grafiklarini izohlab bering.
4. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va chegaraviy moyillik ko'rsatkichlarini izohlang?
5. Qaysi mablag'lar investisiya tarkibiga kiritiladi?

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To'g'ri yoki noto'g'riliгини belgilang.

1. Iste'mol – bu daromadning jamg'arilmagan qismi bo'lib, tovar va xizmatlarga sarflanadi.
2. Jamg'arish daromad oshgan sari doimo kamayadi.
3. Iste'molga o'rtacha moyillik (APC) iste'mol hajmining jami daromadga nisbati orqali hisoblanadi.
4. Jamg'arishga o'rtacha moyillik (APS) har doim 1 dan katta bo'ladi.
5. Iste'molga chegaralangan moyillik (MPC) oshsa, jamg'arishga chegaralangan moyillik (MPS) ham oshadi.
6. Investitsiyalar – bu jismoniy va inson kapitaliga sarflanadigan xarajatlar hisoblanadi. Investitsiyalar doimo foiz stavkalari o'zgarsa ham o'zgarishsiz qoladi.
7. Foiz stavkasi oshganda, jamg'arish hajmi ham ortishi mumkin, chunki insonlar ko'proq tejashni xohlaydi.
8. Investitsiyalar faqat davlat tomonidan amalga oshiriladi.

9. Jamg‘arish va iste’molga moyillik yig‘indisi har doim 1 ga teng bo‘ladi.

10. Foiz stavkasi iqtisodiy siyosatning muhim vositalaridan biridir.

11. Investitsiyalar qisqa muddatli iste’molga xizmat qiladi.

12. Agar foiz stavkasi pasaysa, tadbirkorlar ko‘proq kredit olib, investitsiyalar hajmini oshirishi mumkin.

2-ilo va

Bo‘sh kataklarni to‘ldiring.

Yilla r	Daroma d (DI)	Iste’mol (C)	Jamg‘aris h (S)	APS	AP C	MP S	MPC
1	470	475					
2	490	490					
3	510	505					
4	530	520					
5	550	535					
6	570	550					
7	590	565					

3-ilo va

Masalalarni yechilishi bo‘yicha namunalar

1-masala

Jamg‘arishga chegaralangan moyillik ko‘rsatkichi 0,2 ga, avtonom iste’mol hajmi 700 ga, chegaralangan soliq stavkasi 0,25 ga, daromadlar darajasi 7000ga teng bo‘lsa, topilsin:

- a) iste’mol va jamg‘armalar hajmi;
- b) iste’molga va jamg‘arishga chegaralangan moyillik ko‘rsatkichlari.

Yechish:

Dastlab iste’molga chegaralangan moyillik ko‘rsatkichini hisoblab topamiz

Ma’lumki, MPC+MPS=100 MPC=100-MPS=100-20=80%, yoki 0,8

Iste’mol funksiyasiga ko‘ra iste’mol xarajatlari miqdorini aniqlaymiz

$$C=a+b(Y-tY)=700+0,8(7000-0,25*7000)=4900 \text{ sh.b.}$$

Jamg‘arish miqdorini tasarrufdagi daromaddan iste’mol xarajatlarini ayirib topamiz

$$S = Y_d - C = (Y - tY) - C = (7000 - 0,25 * 7000) - 4900 = 5250 - 4900 = 350 \text{ sh.b.}$$

Iste’molga va jamg‘arishga o‘rtacha moyillikni topamiz

$$APC = S/Y_d = 350/5250 = 0,93 \quad APS = S/Y_d = 350/5250 = 0,07$$

2-masala

Investisiyalar (I) – 50 sh.b.ni, davlat xarajatlari (G) – 200, sof eksport (X_n) – 70, avtonom iste’mol xarajatlari (S) – 100 sh.b.ni, jamg‘armaga chegaralangan moyillik (MRS) – 0,25 ni tashkil etsa, YaIMning muvozanatli darjasini aniqlang.

Yechish: $MRS = 1 - MPS = 1 - 0,25 = 0,75$; Iste’mol xarajatlari funksiyasi:

$$S = 100 + 0,75 Y \quad / \quad Y = C + I + G + X_n.$$

Mavjud ma’lumotlarni asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo‘ygan holda YaIMning izlanayotgan muvozanatli miqdorini topamiz. $Y = 100 + 0,75 Y + 50 + 200 + 70 \quad 0,25 Y = 420 \text{ pul birl.} \quad Y = 420 : 0,25$, bundan $Y = 1680 \text{ pul birl. ekanligini aniqlaymiz.}$

4-ilova

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. Agarda ixtiyoridagi daromad (DI) 200ga iste’mol (C) 180 ga teng bo‘lsa, unda iste’molga bo‘lgan o‘rtacha moyillik (APC) va jamg‘arishga bo‘lgan o‘rtacha moyillik (APS) nimaga teng bo‘ladi?

2.O‘tgan yili uy xo‘jaliklarining iste’mol xarajatlari 800 shartli birlikni (sh.b.) tasarrufdagi daromad miqdori esa 1000 sh.b.ni tashkil etdi.

Joriy yilda jamg‘armalar hajmi 120 sh.b.ni, iste’molga chegaralangan moyillik esa 82 % ni tashkil qildi.

Topilsin:

a) o‘tgan yildagi yildagi jamg‘armalar, iste’molga va jamg‘arishga o‘rtacha moyillik ko‘rsatkichlari;

b) joriy yildagi iste’mol, tasarrufidagi daromad, iste’molga va jamg‘arishga o‘rtacha moyillik ko‘rsatkichlari;

v) jamg‘arishga va iste’moga chegaralangan moyillik ko‘rsatkichlari

3. Oilaning haftalik iste'mol xarajatlari 100 sh.b.ni hamda haftalik daromad hajmining $1/2$ qismining yig'indisiga teng. ($C=100 + 1/2DI$)


a) jadval ma'lumotlari bo'yicha oilaning iste'mol xarajatlari va daromadning har bir darajasidagi jamg'arma miqdorini (dollarda) xisoblang.

Daromad DI	Iste'mol (C)	Jamg'aris h (S)	APS	APC	MPS	MPC
0						
100						
200						
300						
400						
500						


5-ilova

Jadvallarni izohlang.


Klassik modelda jamg'arish va investitsiya



Muliplikator samarasi



IS Modeli



6-ilova

TESTLAR

1. Iste'molning mohiyati nima?

- a) Tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish
- b) Iste'molchilarning 33oh a va xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish

- c) Jamg‘armalarni oshirish
- d) Pul va kapitalni qayta taqsimlash

2. Iste'molning funksiyalaridan qaysi biri asosiy hisoblanadi?

- a) Daromadlarni taqsimlash
- b) Aholining ehtiyojlarini qondirish
- c) Resurslarni ishlab chiqarish
- d) Jamg‘arma shakllantirish

3. Jamg‘arishning asosiy funktsiyasi nima?

- a) Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish
- b) Resurslar va daromadlarni jamlash
- c) Soliqlarni to‘lash
- d) Investitsiyalarni jalg qilish

4. Investitsyaning iqtisodiy mohiyatini aniqlang.

- a) Moliyaviy kapitalni yuqori foyda maqsadida sarflash
- b) Davlat byudjeti uchun sarflash
- c) Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni oshirish
- d) Kredit olish va uni foizsiz qaytarish

5. Investitsyaning iqtisodiy funktsiyasi nima?

- a) Kapitalning oshishini ta’minlash
- b) Soliq bazasini kengaytirish
- c) Narxlar darajasining pasayishini ta’minlash
- d) Mehnat bozorining raqobatbardoshligini oshirish

6. Iste'mol va jamg‘armalar o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday?

- a) Iste'mol ko‘payganda jamg‘armalar qisqaradi
- b) Iste'mol va jamg‘armalar bir-biriga ta’sir qilmaydi
- c) Iste'mol kamayganda jamg‘armalar ortadi
- d) Iste'mol jamg‘armalarni to‘liq yo‘q qiladi

7. Iste'mol va investitsiyalarni taqqoslaganda, ularning farqi nima?

- a) Iste'mol qisqa muddatli, investitsiyalar esa uzoq muddatli bo‘ladi
- b) Iste'mol faqat davlat tomonidan amalga oshiriladi
- c) Investitsiyalar asosan jismoniy shaxslarga tegishli
- d) Iste'mol faqat xususiy 34oh av bilan bog‘liq

8. Jamg‘arma va investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday?

- a) Jamg‘armalar yuqori darajada bo‘lsa, investitsiyalar kamayadi
- b) Jamg‘armalar o‘sha darajada qolsa, investitsiyalar ortadi

- c) Jamg‘armalar investitsiyalar uchun manba bo‘lishi mumkin
d) Jamg‘armalar investitsiyalarga hech qanday ta’sir qilmaydi
- 9. Iste’mol funktsiyasini tasvirlovchi grafik qanday bo‘ladi?**
- a) Iste’mol va daromad o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatuvchi grafik
b) Iste’mol va narxlar o‘rtasidagi aloqani tasvirlovchi grafik
c) Iste’mol va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi grafik
d) Iste’mol va inflyatsiya darajasini tasvirlovchi grafik
- 10. Jamg‘arma va investitsiyalarni ifodalovchi grafik nima haqida so‘z yuritadi?**
- a) Kapitalning iste’molga bo‘lgan ta’siri
b) Kapitalning jamg‘arma orqali investitsiyalarni qanday ta’minlaydi
c) Soliq darajalarining investitsiyalarga ta’siri
d) Tovar ishlab chiqarish va narxlar o‘rtasidagi bog‘liqlik

GLOSSARIY

	Atama o‘zbek tilida	Atama ingliz tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma’nosi
1.	<i>Iste’mol</i>	<i>Consumption</i>	<i>Потребление</i>	YaIM tarkibida eng katta ulushga ega bo‘lgan komponentdir. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda iste’mol xarajatlari ixtiyoridagi daromadning 90 % dan ortiq qismini tashkil etadi. Shu tufayli xam iste’mol xara-jatlariga ta’sir etuvchi omillarni, uning o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganish muhim axamiyatga ega.
2.	<i>Jamg‘arma</i>	<i>Savings</i>	<i>Сбережение</i>	Uy xo‘jaliklari ixtiyoridagi daromadning iste’mol qilinmasdan qolgan qismi

3.	<i>Investisiya</i>	<i>Investment</i>	<i>Инвестиции</i>	yangi korxonalar qurish, uzoq muddat xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob-uskunalarni yakuniy sotib olishga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir.
4.	<i>Iste'molg a o'rtacha moyillik</i>	<i>average propensity to consume</i>	<i>Средняя склонность к потреблению</i>	ixtiyordagi daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi, ya'ni: $APC = \frac{C}{DI} \cdot 100$
5.	<i>Jamg'ar maga o'rtacha moyillik.</i>	<i>Average propensity to save</i>	<i>Средняя склонность к сбережению</i>	Ixtiyordagi daromaddagi jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni: $APS = \frac{S}{DI} \cdot 100$
6.	<i>Iste'molg a chegarala ngan moyillik</i>	<i>marginal propensity to consume</i>	<i>Предельная склонность к потреблению</i>	Iste'moldagi o'zgarishlarning shu o'zgarishni keltirib chiqargan iste'mol daromad o'zgarishdagi ulushi iste'molga chegaralangan moyillik deyiladi. $MPC = \frac{\Delta C}{\Delta DI} = \frac{C_t - C_{t-1}}{DI_t - DI_{t-1}} \cdot 100$
7.	<i>Jamg'aris hga o'rtacha moyillik</i>	<i>marginal propensity to save</i>	<i>Предельная склонность к сбережению</i>	Jamg'arishdagi o'zgarishning iste'mol daromad o'zgarishdagi ulushi jamg'arishga chegaralangan moyillik deyiladi. Ya'ni: $MPS = \frac{\Delta S}{\Delta DI} = \frac{S_t - S_{t-1}}{DI_t - DI_{t-1}} \cdot 100$
8.	<i>Tasarrufdaagi daromad</i>	<i>Disposable income, DI</i>	<i>Располагаемый доход</i>	shaxsiy daromaddan fuqorolar tomonidan to'lanadigan barcha individual soliqlarni ayirish orqali hosil qilinadi.

5 – MAVZU: MAKROIQTISODIY BEQARORLIK, DAVRIY TEBRANISHLARNING TURLARI

Tushunchalar va tayanch iboralar:

Iqtisodiy sikl, ekzogen nazariyalar, endogen nazariyalar, qisqa muddatli sikl, o'rta muddatli sikl, uzoq muddatli sikl, inqiroz, depressiya, jonlanish, yuksalish, protsiklik o'zgaruvchilar, antisiklik o'zgaruvchilar, asiklik o'zgaruvchilar

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy sikl ko'rsatkichlari sifatida qanday ko'rsatkichlardan foydalaniadi?
2. Siklik tebranishlarning har xilligiga sabab bo'ladigan omillar qaysilar?
3. Siklik tebranishlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan tashqi omillarga nimalae kiradi?
4. Iqtisodiy sikllarning rivojlanish jarayoniga fan-texnika tarayoqqiyotining ta'siri qanday bo'ladi?

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To'g'ri yoki noto'g'riliгини belgilang.

1. Makroiqtisodiy beqarorlik iqtisodiyotning o'sish va pasayish davrlarini ifodalaydi.
2. Davriy tebranishlar faqat tasodifiy omillar bilan bog'liq.
3. Iqtisodiy sikllar bosqichlari: inqiroz, turg'unlik, jonlanish, cho'qqiga chiqishdan iborat.
4. Har bir iqtisodiy sikl doimo bir xil davomiylikka ega bo'ladi.
5. Inqiroz davrida ishlab chiqarish hajmi va ish o'rnlari kamayadi.
6. Iqtisodiy o'sish va inqiroz jarayonlari doimo bir xil sabablar bilan yuzaga keladi.
7. Siklik tebranishlar qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.
8. Iqtisodiy inqirozlar har doim oldindan bashorat qilinishi mumkin.

9. Beqarorlik darajasini kamaytirish uchun davlat iqtisodiy siyosat yuritadi.

10.Iqtisodiy tiklanish davrida ishsizlik darjasи ortади.

11.Iqtisodiy sikllar tabiiy jarayon bo‘lib, turli omillarga bog‘liq.

12.Davriy tebranishlar faqat ichki iqtisodiy omillar bilan bog‘liq.

13.Inflyatsiya va ishsizlik iqtisodiy beqarorlikning asosiy belgilaridan biridir.

14.Iqtisodiy sikllarning davomiyligi va chuqurligi doimo bir xil bo‘ladi.

15.Konyunktur tebranishlar talab va taklif o‘zgarishlari natijasida yuzaga keladi.

16.Davriy tebranishlarning oldini olish mutlaqo imkonsizdir.

17.Siklik o‘zgarishlar ishlab chiqarish hajmi va investitsiyalarga ta’sir qiladi.

18.Faqat texnologik o‘zgarishlar iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaradi.

19.Hukumatning 38oh av va 38oh ava38 siyosati tebranishlarni yumshatishi mumkin.

20.Beqarorlik faqat rivojlanayotgan davlatlarda uchraydi.

2-ilova

Jadvalni to‘ldiring va izohlang.

<i>Sikl turlari</i>	<i>Siklning davomiyligi</i>	<i>Asosiy xususiyatlari</i>
<i>Kitchin sikli</i>		
<i>Juglyar sikli</i>		
<i>Kondratev sikli</i>		
<i>Kuznets sikli</i>		
<i>Forrester sikli</i>		
<i>Toffler sikli</i>		

TESTLAR

1. Makroiqtisodiy beqarorlik nima?

- a) Iqtisodiy o'sishni pasayishi
- b) Davlatning soliq stavkalarini ko'tarishi
- c) Narxlar darajasining o'zgarishi
- d) Iqtisodiy o'sishning ortib borishi

2. Davriylik tebranishlarining asosiy turi qaysi?

- a) Ishsizlik darajasi
- b) Yalpi ichki mahsulotning o'sishi va kamayishi
- c) Narxlar darajasining o'sishi
- d) Qishloq xo'jaligi o'sishi

3. Makroiqtisodiy beqarorlikning sabablari nima?

- a) Davlat byudjetining muvozanati
- b) Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishining o'zgarishi
- c) Investitsiyalar va iste'molning kutilganidan kam bo'lishi
- d) Iqtisodiy sub'ektlarning barqarorligi

4. Davriylik tebranishlarining eng katta ta'siri nima?

- a) Narxlarning pasayishi
- b) Aholining daromadlari oshishi
- c) Iqtisodiy o'sishning keskin o'zgarishi
- d) Ishsizlikning barqarorligi

5. Qaysi iqtisodiy tushuncha makroiqtisodiy beqarorlikka ta'sir qiladi?

- a) Iste'mol va investitsiyalarni ko'paytirish
- b) Narxlar darajasining o'zgarmasligi
- c) Soliq siyosatining izchil bo'lishi
- d) Pul taklifining keskin o'zgarishi

6. Qaysi davrda iqtisodiyotda davriylik tebranishlari sezilarli bo'ladi?

- a) Yalpi ichki mahsulotning doimiy o'sishi davrida
- b) Faqat inflyatsiya kamaygan davrda
- c) Iqtisodiy resessiya va o'sish davrlarida
- d) Aholi sonining doimiy ravishda ortishi davrida

7. Iqtisodiy inqiroz nima?

- a) Ishsizlik darajasining pasayishi

b) Iqtisodiyotning o'sish sur'atlari keskin pasayishi yoki turg'unlikka tushishi

- c) Yangi bozorlarning kengayishi
- d) Davlat byudjeti profitsit bo'lishi

8. Iqtisodiy turg'unlikning asosiy belgilari nima?

- a) Ishlab chiqarishning o'sishi va narxlar pasayishi
- b) Yalpi ichki mahsulotning kamayishi va ishlarning to'xtashi
- c) Narxlar darajasining keskin oshishi
- d) Davlat qarzlarining pasayishi

9. Davriylik tebranishlarining tabiatini nima?

- a) Iqtisodiyotdagi doimiy o'sish
- b) O'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar
- c) Iqtisodiy barqarorlikning uzoq muddatli shakli
- d) Tovarlar narxlarining o'zgarishi faqat qishloq xo'jaligi sohasida

10. Iqtisodiy barqarorlikka qanday omillar ta'sir qiladi?

- a) Davlat byudjeti va inflyatsiya darajasi
- b) Iqtisodiy o'sishning sekinlashishi va pul ta'minotining qisqarishi
- c) Soliq va investitsiya siyosatining izchil bo'lishi
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

GLOSSARY

	Atama o'zbek tilida	Atama ingliz tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma'nosi
1.	<i>Iqtisodiy sikl</i>	<i>Economic cycle</i>	<i>Экономический цикл</i>	asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning (ishlab chiqarish darajasi, bandlik, narxlar) muntazam ravishda o'zgarib turishi bo'lib, ularning o'rtacha muddati taxminan 8-10 yilni tashkil etadi.
2.	<i>Ekzogen nazariyalari</i>	<i>External theory</i>	<i>Экзогенная теория</i>	sikllik tebranishlarni iqtisodiy tizimdan tashqaridagi sabablar bilan izohlaydilar.

3.	<i>Endogen nazariyal ar</i>	<i>Internal theory</i>	Эндогенные теории	siklik tebranishlar iqtisodiy tizimning ichidagi (o‘zidagi) sabablar bilan izohlaydilar. Endogen nazariya tarafdarlarining fikricha, iqtisodiy sikllarga aynan iqtisodiy omillar sabab bo‘ladi.
4.	<i>Qisqa muddatli sikllar</i>	<i>Short run fluctuations</i>	Краткосрочные циклы	ularning muallifining ismi bilan Kitchin sikllari yoki cho‘chqa sikllari deb ham ataladi, chunki Kitchin ularni o‘rganishda cho‘chqa go‘shti bozorini tadqiq qilgan. Bugungi kunda ular ko‘p-roq “zahira sikllari” degan nom bilan mashhurdir.
5.	<i>Uzoq muddatli sikllar</i>	<i>Long run fluctuations</i>	Долгосрочные циклы	Kondratevning uzun to‘lqinlari yoki kon‘yunkturaning katta sikllaridir. Ularning muallifi – mashhur rus agrar iqtisodchisi Nikolay Dmitrievich Kondratevdir (1892—1938). U Angliya, Fransiya va AQShning XVIII asr so‘ngidan keyingi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga (narx darajasi, foiz stavkasi, ish haqi, tashqi savdo aylanmasi, iqtisodiyotning taraqqiyotini belgilovchi tarmoq-larning ba’zi ko‘rsatkichlari) oid statistik materiallarni umumlashtirib, o‘tkazilgan tahlillar asosida «kichik» sikllar (u

				kichik sikl deganda biz bugun o‘rta muddatli deb atayotgan sikllarni tushunar edi) bilan bir qatorda 48-55 yil davom etadigan «katta» sikllar ham bor, degan xulosaga kelgan.
6.	<i>O‘rta muddatli sikl</i>	<i>Interval run fluctuation s</i>	<i>Среднесро чные циклы</i>	aynan iqtisodchilarning aksariyati o‘rgangan va o‘rganayotgan sikldir. Davlatning makroiqtisodiy siyosati asosan shu siklni tartibga solishga qaratilgan bo‘ladi. Avval aytib o‘tilganidek, o‘rta muddatli sikllarning asosiy sababi asosiy kapitalning yangilanishida deb hisoblanadi.

6-MAVZU: ISHSIZLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI. ISHSIZLIKNING KO'RINISHLARI

Tushunchalar va tayanch iboralar:

Iqtisodiy sikl, Ishsizlik, friksion ishsizlik, tarkibiy ishsizlik, tabiiy ishsizlik, sikllik ishsizlik, Ouken qonuni, iqtisodiyotda gisterezis.

Muhokama uchun savollar

1. Makroiqtisodiy beqarorlik yoki iqtisodiyotning davriyligi deb nimaga aytildi?
2. Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tavsiflab bering.
3. Friksion ishsizlikni keltirib chiqaruvchi sabablar nimalardan iborat?
4. Friksion va tarkibiy ishsizlikning umumiyligi jihatlari qanday?
5. Friksion va tarkibiy ishsizlik o'rtasida tafovutlar nimalardan iborat?

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilang.

1. Ishsizlik – mehnatga layoqatli aholining ish topa olmasligi holatidir.
2. Ishsizlik faqat iqtisodiy inqiroz davrida yuzaga keladi.
3. Friksion ishsizlik vaqtinchalik ish qidirish jarayoni bilan bog‘liq.
4. Tarkibiy ishsizlik doimiy ravishda faqat bitta sohada yuzaga keladi.
5. Siklik ishsizlik iqtisodiy sikllarning pasayish bosqichida oshadi.
6. Ishsizlik darajasi faqat aholi sonining o‘sishiga bog‘liq.
7. Davlat siyosati ish o‘rinlarini yaratish orqali ishsizlikni kamaytirishi mumkin.
8. Ishsizlik faqat rivojlanmagan mamlakatlarga xos muammo.
9. Yashirin ishsizlik – ishchi kuchining to‘liq band bo‘lmasisligi holatidir.
10. Ishsizlikning barcha turlari iqtisodiyot uchun zararli hisoblanadi.

- 11.Ishsizlik darjasini mehnat bozorining barqarorligini ko‘rsatadi.
- 12.Faqat ishchi kuchining ko‘pligi ishsizlikni keltirib chiqaradi.
- 13.Ko‘ngilli ishsizlik odamlarning o‘z istagi bilan ishlamasligini anglatadi.
- 14.Ishsizlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi.
- 15.Ishsizlik nafaqat ish o‘rinlarining yo‘qligi, balki kasbiy mos kelmaslik bilan ham bog‘liq.
- 16.Ishsizlikni kamaytirish uchun faqat yangi korxonalar ochish kifoya qiladi.
- 17.Ishsizlik kompensatsiyasi ishsizlarning vaqtinchalik daromadsiz qolishining oldini oladi.
- 18.Ishsizlikning yuqori darjasini iste’mol va investitsiyalarga salbiy ta’sir qiladi.
- 19.Ishsizlik darjasini doimo bir xil bo‘lib qoladi.
- 20.Ishsizlik faqat davlat iqtisodiy siyosati bilan hal qilinishi mumkin.

2-illova

Mustaqil ishlash uchun masalalar

- 1.** Iqtisodiyot quyidagi ma’lumotlar bilan ifodalangan: aholining umumiyligi soni 358 mln. Kishi, mehnatga layoqatli bo‘limgan yoshdagisi aholi soni 140 mln.kishi, ishsizlar soni 19 mln.kishi, ishchi bilan band aholi soni 180 mln.kishi bo‘lsa ishsizlik darajasini aniqlang.
- 2.** Aholi soni 200 mln.kishi. Ish bilan bandlar soni 114 mln. Kishi, mehnatga layoqatli yoshdagisi aholi soni 160 mln. Kishi, friksion ishsizlar 6 mln. Kishi, tarkibiy ishsizlar 3 mln. Kishi, siklik ishsizlar esa, 5 mln. Kishini tashkil etgan. Ishsizlikning haqiqiy darjasini uning tabiiy darajasidan 4 %ga yuqori. Potensial YaIM 2450 shartli birlikka teng. YaIMning siklik ishsizlik dinamikasiga ta’sirchanlik koeffisenti 2,5.

Aniqlang:

- A) ishsizlikning tabiiy va haqiqiy darjasini;
- B) haqiqiy YaIM hajmi.

- 3.** Mamlakat aholisi 13 mln. ulardan 9 mln. mehnat qilish yoshida. Mamlakatdagi ishsizlik quyidagi omillar bilan tavsiflanadi: Ishlab chiqarish tarkibini o‘zgartirish natijasida 240 ming kishi o‘z ish

joylarini yo‘qotdilar, ular birjadan ro‘yhatdan o‘tgan; Qishloq joylarda 500 ming aholi yollanma ishga ega emas va o‘z shaxsiy xo‘jaliklarida ishlaydilar.

Aniqlang:

1. Mamlakatdagi ishsizlik darajasini aniqlang, ularni shakllarini aniqlang, ushbu ishsizlik YaMM hajmiga qaysi tarzda ta’sir qiladi. Ishsizlik hajmini pasaytirish kerakmi;
2. Ishsizlik darajasini qisqarishiga yordam beruvchi omillarni izohlab bering.

4-ilova

TESTLAR

11. Ouken qonuniga ko‘ra amaliy ishsizlikning tabiiy darajadan 3 foiz ortiq bo‘lishi amaliy YaIM hajmining potensial ko‘rsatkichdan:
 - a) 7,5 foiz ortiq bo‘lishini bildiradi;
 - b) 3 foiz ortiq bo‘lishini bildiradi;
 - c) 4 foiz ortiq bo‘lishini bildiradi;
 - d) 5 foiz ortiq bo‘lishini bildiradi;
 - e) 6 foiz ortiq bo‘lishini bildiradi.
12. Iqtisodiyotdagи so‘nish tufayli ishsiz qolganlar ishsizlikning quyidagi toifasiga mansub bo‘ladilar:
 - a) friksion ishsizlik;
 - b) tarkibiy ishsizlik;
 - c) siklik ishsizlik;
 - d) barcha javoblar noto‘g‘ri.
13. Ishsizlik deganda...
 - a) O‘ziga ish topolmasdan, mehnat zahirasi armiyasiga aylangan aholining iqtisodiy faol qismi tushuniladi;
 - b) mehnatga layoqatli bo‘lib, ishslashni xohlagan, lekin ish bilan ta’milnaganlar tushuniladi;
 - c) ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan ta’milashini kutayotgan aholi tushuniladi;
 - d) Ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifning nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan aholi tushuniladi;
 - e) barcha javoblar to‘g‘ri.
14. Friksion ishsizlik deganda:

a) iste'molchilik talabi va texnologiyadagi turli hududlarda, turli 46oh ava ish turlariga ishchi kuchining talab va taklif nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

b) iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik tushuniladi;

c) ish joylarini o'zgartirish tufayli ishdan bo'shab qolib, malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rnlari bo'shashini kutayotgan ishsizlar tushuniladi;

d) ishslashni xohlamaydigan ishsizlar tushuniladi;

e) barcha javoblar to'g'ri.

14. Tarkibiy ishsizlik deganda:

a) ish joyini o'zgartirish tufayli ishdan bo'shab qolib, malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rnlari bo'shashini kutayotgan ishsizlar tushuniladi;

b) iste'molchilik talabi va texnologiyaning o'zgarishi tufayli turli hududlarda turli 46oh ava ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifga nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

c) iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

d) ishslashni xohlamaydigan ishsizlar tushuniladi;

e) to'g'ri javob yo'q.

15. Siklik ishsizlik deganda...

a) iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

b) ish joyini o'zgartirishi tufayli ishdan bo'shab qolib malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rnlari bo'shashini kutayotgan ishsizlar tushuniladi;

c) iste'molchilik talabi va texnologiyaning o'zgarishi tufayli turli hududlarda turli 46oh ava ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifga nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

d) ishslashni xohlamaydigan ishsizlar tushuniladi;

e) barcha javoblar to'g'ri.

a) noto'g'ri javob yo'q;

16. Agar ishsizlik friksion va tuzilmaviy tus olsa, u holda davlat:

a) ish bilan bandlikni kuchaytirish uchun ishlab chiqarishga ko'proq mablag' sarflaydi;

b) ishsizlarga qaytadan kasb o'rgatadi;

c) tadbirkorlarning manfaatdorligini oshirish uchun ssuda hamda kreditlarning foiz stavkalarini pasaytiradi;

d) ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga solinadigan soliqlarni kamaytiradi;

e) noto'g'ri javob yo'q;

17. Agar ishsizlik siklik tus olsa, u holda davlat:

a) ta'lim berish tizimini kengaytiradi;

b) bo'sh ish joylari haqidagi axborotlarni keng tarqatadi;

c) ish bilan bandlikni kuchaytirish maqsadida ishlab chiqarishga ko'proq mablag' sarflaydi;

d) mehnat birjalariga investisiyalarni ko'paytiradi;

e) noto'g'ri javob yo'q;

18. Mehnat qilish layoqati cheklangan aholi tarkibiga quyidagi toifalarning qaysi biri kiradi :

a) nafaqaxo'rlar;

b) mehnat yoshigacha bo'lган yoshlar;

c) nogironlar, qaramoq(boquv)dagi kishilar;

d) ishsizlar;

e) noto'g'ri javob yo'q;

19. Ouken qonuninga asosan: haqiqatdagi ishsizlik darajasi uning tabiiy darajasidan 2%ga ortiq bo'lishi real YaMM hajmini haqiqatdagi YaMM hajmidan quyidagi hajmda kam bo'lishiga olib keladi:

a) 2%;

b) 4%;

c) 3%;

d) 5%;

5-ilova

KEYS

Ishsizlar qancha vaqt dan beri ishsiz?

Ishsizlik muammosi qanchalik jiddiy ekanligini baholashda, ishsizlik odatda qisqa muddatli yoki uzoq muddatli holat ekanligini aniqlash zarur. Agar ishsizlik qisqa muddatli bo'lsa, bu katta muammo emas degan xulosaga kelish mumkin. Ishchilarga o'zlarga mos keladigan ishlarni topishlari uchun bir nechta hafta kerak bo'lishi

mumkin. Agar ishsizlik uzoq muddatli bo'lsa, shunday xulosa qilish mumkinki, bu jiddiy muammo. Uzoq muddat davomida ishsiz bo'lgan ishchilar ko'proq iqtisodiy va ruhiy qiyinchiliklarga duchor bo'lmoqda. Chunki ishsizlikning davomiyligi bizning ishsizlik aslida qanchalik katta muammo ekanligi haqidagi qarashlarimizga ta'sir qiladi, bu borada iqtisodchilar ishsizlikning davomiyligi xususiyatlarni o'rganish uchun juda ko'p izlanishlar olib bordilar. Ushbu ishda ular muhim, nozik va ziddiyatli ko'rinaligan natijani aniqladilar. Aksariyat hollarda ishsizlik davomiyligi qisqa bo'ladi, ammo ko'pincha har qanday vaqtda kuzatilgan ishsizlikning aksariyati uzoq muddatli bo'ladi.

Bu da'vo haqiqatga qanchalik yaqinligini quyidagi misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Aytaylik, siz ishsizlik bo'yicha so'rov o'tkazish uchun bir yil davomida har hafta hukumatning ishsizlik bo'yicha ofisiga tashrif buyurasiz. Har hafta to'rtta ishsizga duch kelasiz. Ushbu ishchilardan uchtasi butun yil davomida bir xil shaxslardir, biroq har hafta to'rtinchi shaxs o'zgaradi. Ushbu misolga asoslanadigan bo'lsak, ishsizlik odatda qisqa muddatlimi yoki uzoq muddatlimi?

Ba'zi oddiy hisob-kitoblar bu savolga javob berishi mumkin. Ushbu misolda siz uchratasiz bir yil davomida jami 55 ishsizlarni. Ularning 52 nafari bir haftagini ishsiz bo'ladi xolos, 3 nafari esa to'liq yil davomida ishsiz yuradi. Bu degani ishsizlarning 52/55 yoki 95 foizi bir hafta ichida ish topadi va ularning ishsizlik davomiyligi ham tugaydi. Biroq, har doim ishsizlik idorasiga kirsangiz, siz uchrashgan to'rt kishidan uchtasi butun yil davomida ishsiz yuradi. Bu degani, bir qarashda umumiyligi ishsizlarning 95%ni bir hafta ichida ish topadi degan xulosaga kelish mumkin, aslida esa ishsizlik butun yil davomida 75%ligicha qolaveradi. Bunda masalan, dunyoda bo'lgani kabi, ishsizlikning aksariyati uzoq muddatli. Ushbu nozik xulosa shuni anglatadiki, iqtisodchilar va siyosatchilar ishsizlik to'g'risidagi ma'lumotlarni sharhlashda va siyosatni ishlab chiqishda ehtiyyot bo'lishlari kerak.

Odatda ishsiz bo'lgan odamlarning aksariyati tez fursatda ish topadilar. Shunga qaramay, iqtisodiyotdagi ishsizlik muammosining asl

mohiyati, nisbatan uzoq vaqt davomida ishsiz bo‘lganlarni ish bilan ta’minlashdir².

GLOSSARIY

	Atama o‘zbek tilida	Atama ingliz tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma’nosi
1.	<i>Ishsizlik</i>	<i>Unemployment</i>	<i>Безработица</i>	bu mamlakat aholisining mehnat-ga layoqatli yoshga yetgan, ishla-maydigan va qonunchilikka ko‘ra belgilangan muddat davomida ish qidirayotgan shaxslardan iborat qismidir.
2.	<i>Friksion ishsizlik</i>	<i>Frictional unemployment</i>	<i>Фрикционная безработица</i>	ishsizlikning bu turi ko‘ngilli ishsizlikdir. Ko‘ngilli ishsizlik ish qidirish va kutish bilan bog‘liqdir. «Friksion» atamasi mehnat bozo-rida ma’lum bir tebranishlar bo‘lib turishini, mehnat bozoridagi muvozanatga bir zumda erishib bo‘lmasligini ta’kidlaydi.
3.	<i>Tarkibiy ishsizlik</i>	<i>Structural unemployment</i>	<i>Структурная безработица</i>	ishsizlikning bu turi iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlariga, demak, ishchi kuchiga bo‘lgan talabning tarkibiy o‘zgarishiga bog‘liqdir.
4.	<i>Tabiiy ishsizlik</i>	<i>Natural unemployment</i>	<i>Естественная безработица</i>	Friksion va tarkibiy ishsizliklarning yig‘indisi. «Tabiiy ishsizlik» atamasi ushbu darajaning me'yorda ekanligini, iqtiso-diyotga ichdan xos ekanligini ta’kidlash uchun ishlataladi. Bu ishsizlikning eng

² Principles of Economics, 8e N. Gregory Mankiw 866 p. 587-bet.

				yaxshi daraja-sidir. Bir tomondan, uning darajasi resurslarning bandlik muammosi haqida gapiradigan darajada yuqori bo‘lmaydi, ikkinchi tomondan, u mehnat bozorining moslashuvchanligini ta’minlash va sog‘lom raqobat elementlarini hosil qilish uchun yetarlidir.
5.	<i>Ishsizlik-ning inflyatsiyani tezlashtirmaydigan darajasi</i>	<i>NAIRU - not-accelerating-inflation-rate-of unemployment</i>	<i>Уровень безработицы, который не ускоряет инфляцию</i>	Ishsizlikning tabiiy darajasi. Bu nom mashhur maqsadlar dilemmasining - inflyatsiyaga qarshi kurash yoki ishsizlikka qarshi kurash muammosining tahlilidan ham kelib chiqadi. Qisqa muddatli oraliqlarda bu ikki vazifani bir paytda bajarishning imkoniy yo‘q.
6.	<i>Siklik ishsizlik</i>	<i>Cyclical unemployment</i>	<i>Циклическая безработица</i>	iqtisodiy siklning so‘nish bosqichi tufayli vujudga kelgan ishsizlikdir. So‘nish bosqichida ishlab chiqarishning faolligi susayadi, ayrim korxonalar yopi-ladi, natijada ishsizlik ortadi. Ishsizlikning amaliy va tabiiy darajalari o‘rtasidagi farq siklik ishsizlik ko‘rsatkichini tashkil qiladi. Siklik ishsizlik - salbiy iqtisodiy hodisadir. Uning borligi iqtisodiyotning to‘liq bandlik darajasida faoliyat ko‘rsatma-yotganligini, demak, YaIMning potensial darajasiga erishilmayot-ganligini bildiradi.
7.	<i>Oukan qonuni</i>	<i>Law of Oaken</i>	<i>Закон Оукена</i>	agar ishsizlikning amaldagi darjasida ishsizlikning tabiiy darajasidan 1 foizga yuqori bo‘lsa, joriy YaIMning potensial YaIM ko‘rsatkichdan

				ortda qolishi 2,5 foizni tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, sikllik ishsizlikning har bir foizi YaIM bo'yicha 2,5 foiz ortda qolishga sabab bo'ladi.
8.	<i>Iqtisodiyot da gisterezis</i>	<i>Gisterezis in economy</i>	<i>Гистерезис с в экономике</i>	(yunon. «гистерезис» - ortda qolish) – ayrim makroiqtisodiy chora-tadbirlarning uzoq vaqt saqlanib qoluvchi oqibatlari, boshqacha qilib aytganda, tabiiy darajaga qaytmasligidir.
9.	<i>Klassik maktab vakillari</i>	<i>School of classics</i>	<i>Школа классиков</i>	Klassik maktab vakillari davlatning mehnat bozori faoliyatiga qisman aralashuvi tarad-dorlaridir: davlatning passivligi bozorning o'z-o'zini tartibga solish kuchlari to'liq namoyon bo'lishiga imkon beradi.
10	<i>Keyns maktabi vakillari</i>	<i>School of Keynes</i>	<i>Школа Кейнса</i>	Keyns maktabi vakillari mehnat bozoridagi gisterezis va qiyinchiliklarni rad etmagan holda, davlatning ish o'rinalarini tashkil qilish va iqtisodiyotda bandlik muammolarini hal qilish orqali to'lovga layoqatli talabni tartibga solishga qaratilgan faol aralashu-vini yoqlaydilar.

7-MAVZU: INFLYATSIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI

Tushunchalar va tayanch iboralar

Inflyatsiya, keynschilar maktabi namoyondalari, neoklassik yondoshuv tarafdorlari, inflyatsiya darajasi, ochiq namoyon bo'luvchi inflyatsiya, yashirin inflyatsiya, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, kutilayotgan inflyatsiya, kutilmagan inflyatsiya, Fillips egri chizig'i, antiinflyatsiya siyosati

Muhokama uchun savollar

1. Inflyatsyaning mohiyati faqatgina muomaladagi pul massasining ortiqchaligi bilan izohlanishi to'g'rimi?
2. Inflyatsiyani tushuntirib berishga keynchilarning va neoklassiklarning yondoshuvlari qanday farq qiladi?
3. Talab inflyatsiyasi qanday sodir bo'ladi?
4. Fillips egri chizig'i qaysi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi? Bu bog'liqlik qanday tavsiflanadi?

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To'g'ri yoki noto'g'riliгини belgilang.

1. Inflyatsiya – bu tovar va xizmatlar narxlarining umumiy darajada oshishi jarayonidir.
2. Inflyatsiya faqat pulning ortiqcha muomalaga chiqarilishi bilan bog'liq.
3. Talab inflyatsiyasi talabning taklifdan oshishi natijasida yuzaga keladi.
4. Narxlar ko'tarilishi doimo inflyatsiya deb ataladi.
5. Xarajatlar inflyatsiyasi ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi tufayli yuzaga keladi.
6. Deflyatsiya – bu inflyatsyaning kuchaygan shaklidir.
7. Mo'tadil inflyatsiya iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin.
8. Giperinflyatsiya juda tezkor va nazoratdan chiqib ketgan narx oshishidir.
9. Inflyatsiya darajasini faqat bank tizimi nazorat qiladi.

10. Markaziy bank monetar siyosat orqali inflyatsiyani boshqarishi mumkin.

2-*ilova*

MASALA

- 1.** Real daromad hajmi qanday o‘zgaradi, agar:
- a) nominal daromad 10%ga ortsa, narx darajasi esa 7%ga o‘sgan bo‘lsa.
 - b) nominal daromad 30 ming.doll.ni, shu yilning o‘zida narxlari indeksi esa 106 ni tashkil etgan bo‘lsa.

- 2.** *I jadvalda* yillar bo‘yicha narx indekslari keltirilgan:

I jadval

Yil	Narx indeksi	Inflyasiya darajasi (%da)
1.	100,00 -	
2.	112,00	
3.	123,00	
4.	129,00	

- a) har bir yil uchun inflyasiya darajasi (sur’ati)ni aniqlang.
- b) “70 qiymat qoidasi”ni qo‘llab, narxlarning necha yilda 2 barobarga ortishini aniqlang (maxrajdagi songa *a*) punktda aniqlangan har bir yil uchun inflyasiya darajasidan foydalaning).
- c) agar nominal daromad 2-yilda 1-yilga nisbatan 15%ga ortgan bo‘lsa, 2-yilga nisbatan 3-yilda 7%ga ortgan bo‘lsa real daromadning o‘zgarishini aniqlang (%da).
- d) agar nominal daromad 2-va 3-yillarda 25 ming dollarga teng bo‘lgan bo‘lsa, shu yillardagi real daromadning absolyut kattaligini aniqlang.
- e) agar 2-yilda kredit uchun foizning nominal darajasi 14% teng bo‘lsa (1-va 2-yil davr mobaynida zaem oluvchilar uchun) va 3-yilda 18% (2-va 3-yil davr mobaynida zaym oluvchilar uchun) bo‘lsa, unda ushbu yillarda uning real darajasini aniqlang.

- 3.** Aytaylik iste’mol savatiga faqat shakar va go‘sht kirsin. Jadvalda bu tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va narxi keltirilgan. 2023 - yil bazis yili bo‘lsa 2024 -yil uchun YAIM deflyatori va iste’mol narxlari indeksini aniqlang.

Yillar	Ishlab chiqarish (sh.b.)	Bir sh.b. mahsulot narxi (pul. birl.)

	shakar	go'sht	shakar	go'sht
2023	730	930	500	2700
2024	700	990	650	3200

3-ilova

B.B.B. usuli asosida bilimlarni aniqlash bo'yicha tushuncha va atamalar

Nº		Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
1	Inflyatsiya			
2	Inflyatsiya darajasi			
3	Ochiq namoyon bo'luvchi inflyatsiya			
4	Yashirin inflyatsiya			
5	Talab inflyatsiyasi			
6	Taklif inflyatsiyasi			
7	Kutilayotgan inflyatsiya			
8	Kutilmagan inflyatsiya			
9	Fillips egri chizig'i			
10	Antiinflyatsiya siyosati			
11	Yalpi talabni tartibga solish			
12	Yalpi taklifni tartibga solish			

4-ilova

TESTLAR

1. Inflyasiyaning iqtisodiy tanglik va ishsizlik bilan birlgilikda yuz berishi:

- a) stagflyasiya deb ataladi;
- b) stagnasiya deb ataladi;
- c) deflyasiya deb ataladi;
- d) giperinflyasiya deb ataladi;
- e) noto'g'ri javob yo'q;

2. Taklif inflyasiyasi:

a) ishlab chiqirishda o‘rtacha xarajatlarning ortishi natijasida sodir bo‘ladi;

b) tovar va xizmatlarning jami talabdan orqada qolib, pul birligi qadrining tushishi natijasida sodir bo‘ladi;

c) ishlab chiqarishda o‘rtacha xarajatlarning pasayishi natijasida sodir bo‘ladi;

d) tovar va xizmatlarning jami talabdan orqada qolib pul birligi qadrining oshishi natijasida sodir bo‘ladi;

3. Inflyasiya qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

a) pul birligi qadrsizlanadi;

b) shaxsiy jamg‘armalar o‘z qadrini yo‘qotadi;

c) kam ta’minlangan aholi yanada qashshoqlashadi;

d) katta investisiyalar qilishga havf-xatar oshadi;

e) noto‘g‘ri javob yo‘q;

4. Davlat inflayasiyani tugatish yoki yumshatish uchun:

a) emissiyani ko‘paytiradi;

b) ishlab chiqarishni pasaytiradi;

c) ishlab chiqarishga beriladigan imtiyozlarni ko‘paytiradi;

d) depozitlar uchun bank to‘laydigan foizlar kamaytiriladi;

e) noto‘g‘ri javob yo‘q;

5. Quyidagi chora-tadbirlarning qaysi biri antiinflyasiya siyosatiga taaluqli:

a) ishlab chiqarishni rag‘batlantirish;

b) eksport-import bo‘yicha imtiyozlar berish;

c) ortiqcha pulni tovar bozoridan chiqarish;

d) ishlab chiqarishga imtiyozli kredit berish;

e) noto‘g‘ri javob yo‘q;

6. Kutilmagan inflayasiyadan quyidagilar eng kam jabr ko‘radilar:

a) qayd qilingan nominal daromad oluvchilar;

b) nominal daromadi narxlarning o‘sishiga qaraganda sekinroq o‘suvchi kimsalar;

c) pul jamg‘armalariga ega kimsalar;

d) narxlar darajasi past bo‘lganda, qarzdor bo‘lib qolgan kimsalar;

e) faqat b) va d) javoblar to‘g‘ri.

7. Quyidagilarning qaysi biri ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishidan kelib chiqqan infliyasiyaga aloqasi yo'q:

- a) bandlikni va ishlab chiqarining o'sishi;
- b) bir mahsulotga bo'lgan xarajat qiymatining o'sishi;
- c) ish haqining infliyasiya ketidan yetib olish maqsadidagi o'sishi;
- d) taklifdagi keskin o'zgarishlar;
- e) foiz stavkasining o'sishi.

8. Yalpi xarajatlarining o'sishi quyidagi holatda infliyasiyaga olib keladi:

- a) iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitida taraqqiy etsa;
- b) YaMMning potensial va haqiqatdagi darajasi teng bo'lganda;
- c) ishchi kuchi sonining ortmasa;
- d) faqat a) va b) javoblar to'g'ri;
- e) hamma javoblar to'g'ri.

9. Jadallashayotgan infliyasiya davrida foiz stavkasi:

- a) pasayadi, chunki pul narxi pasayadi;
- b) pasayadi, chunki bandlik darajasi pasayadi;
- c) ortadi, chunki pul narxi pasayadi;
- d) ortadi, chunki bandlik darajasi pasayadi;
- e) o'zgarmaydi.

10. Kutilmagan infliyasiya quyidagi bilan birlgilikda yuz beradi:

- a) iqtisodiy zararning mavjud emasligi;
- b) iqtisodiyotining samaradorligining pasayishi;
- c) boylik va daromadning qayta taqsimlanishi;
- d) faqat b) va c) javoblar to'g'ri;
- e) hamma javoblar noto'g'ri.

GLOSSARIY

	Atama o'zbek tilida	Atama ingliz tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma'nosi
1.	<i>Inflyatsiya</i>	<i>Inflation</i>	<i>Инфляция</i>	mamlakatda umumiylar narxlar o'sishidir.

				Inflyatsiya (lotincha inflatio - shishish, bo'r-tish, taranglashish) – ma'lum davr mobaynida mamlakatda narxlar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qibiliyatini uzoq muddatli pasayishi. Umuman olganda inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.
2.	<i>Ochiq namoyon bo'luvchi inflyatsiya</i>	<i>Open inflation</i>	<i>Открытая инфляция</i>	narxlar darajasining yuqori darajada o'sib borishida namoyon bo'ladi.
3.	<i>Yashirin inflyatsiya</i>	<i>Closed inflation</i>	<i>Поддавленная инфляция</i>	bu shunday holatki, bunda narxlar, bozor darajasida bo'lishini ta'min-lab turuvchilar (davlat) evaziga rasman o'zgarmaydi, lekin tovar va xizmatlar sifatini pasayishi, defitsit vujudga kelishi natijasida narxlar-ning, pulning qadrsizlanishini namoyon bo'lishi yashirish inflyatsiyani namoyon bo'layotganidan dalolat beradi.
4.	<i>Talab inflyatsiya si</i>	<i>Inflation of demand</i>	<i>Инфляция спроса</i>	iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya'ni, to'liq

				bandlilikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ish-lab chiqarish imkoniyatlari o'sib borayotgan yalpi talabni qondirol-maydi. Ortiqcha talab esa, real to-varlar bahosining ortishiga iqtisodiy bosim beradi va talab infliyat-siyasi kelib chiqadi.
5.	<i>Taklif inflyatsiya si</i>	<i>Inflation of supply</i>	<i>Инфляция предложений</i>	bu, mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baho-larining oshishidan paydo bo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning baholari oshib boradi. Hatto ish bilan band-lik va YAIM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning bahosi oshadi. Yalpi taklif qisqa-rishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o'sishi hisoblanadi. Bunda nominal ish haqi, xom ashyo va yoqilg'i narxlarining oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi.
6.	<i>Kutilayotgan inflyatsiya</i>	<i>Expected inflation</i>	<i>Ожидаемая инфляция</i>	bunda iqtisodiy agentlar inflyatsiya darajasini yildanyilga ma'lum darajada dinamik o'sishini oldindan biladilar.
7.	<i>Kutilmag an inflyatsiya</i>	<i>Unexpected inflation</i>	<i>Неожиданная инфляция</i>	bunda narxlar kutilmaganda birdaniga yuqori darajada o'sib boradi va bu holat iqtisodiy agentlar uchun kutilmagan holat bo'ladi.

8.	<i>Fillips egri chizig‘i</i>	<i>Curve of Fillips</i>	<i>Кривая Филипса</i>	Qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflyatsiya darajalari o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud. Ishsizlik va inflyatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan aniqlangan. Fillips egri chizig‘i ishsizlik va inflyatsiya darajalari o‘rtasidagi teskari bog‘liqliknini xarakterlaydi.
9.	<i>Antiinflyatsiya siyosati</i>	<i>Policy against inflation</i>	<i>Антиинфляционная политика</i>	narxlar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflyatsion keskinlikni yumshatishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy siyosat. Antiinflyatsiya siyosati inflyatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan faol va inflyatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan passiv ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

8 - MAVZU: PUL TUSHUNCHASI VA PUL BOZORI. PUL MASSASI. PUL AGREGATLARI

Tayanch tushunchalari

Pul, Likvidlilik, Pulning funksiyalari, Pul agregatlari, Kvazi-pul, Miqdoriy almashuv nazariyasi tenglamasi, Nominal foiz stavkasi, Real foiz stavkasi, Pul taklifi, Pul bazasi

Muhokama uchun savollar

1. Pulning mohiyatini tushuntiring va funksiyalarini izohlab bering.
2. Pul agregatlari deganda nima tushuniladi va uni belgilashda qaysi tamoyilga asoslaniladi?
3. Pulning funksiyalarini isollar asosida izohlab bering.
4. Pulga bo‘lgan talabga qanday omillar ta’sir qiladi?
5. Pulga talabning klassik nazariyasi qanday asoslarga tayanadi?

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To‘g‘ri yoki noto‘g‘riliгини belgilang.

1. Pul – bu tovar va xizmatlar almashinuvini ta’minlovchi vositadir.
2. Pul faqat qog‘oz shaklida bo‘lishi mumkin.
3. Pul bozori – bu pulning taklifi va talabini shakllantiruvchi tizimdir.
4. Pul bozori faqat banklarning kredit berish faoliyati bilan bog‘liq.
5. Pul massasi iqtisodiyotdagi umumiyligi muomaladagi pul miqdorini ifodalaydi.
6. Pul massasi doimo bir xil darajada qoladi.
7. Pul agregatlari pulning likvidlik darajasiga qarab turkumlanadi.
8. M0 agregati naqd pullarni o‘z ichiga oladi.
9. Pul agregatlari M1, M2 va M3 faqat bitta tarkibiy qismdan iborat.

10. Markaziy bank pul massasini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi.

11. Pul bozori foiz stavkalari va kredit berish jarayonlariga ta’sir qiladi.

12. Pulning qiymati doimo o‘zgarmas bo‘lib qoladi.

13. Markaziy bank pul massasini nazorat qilish orqali inflyatsiyani boshqaradi.

14. Pul agregatlari faqat bank tizimiga tegishli tushuncha.

15. M1 agregati naqd pul va tezkor depozitlarni o‘z ichiga oladi.

16. M2 agregati tarkibida M1 hamda jamg‘arma depozitlari mavjud.

17. Pul massasi qancha ko‘p bo‘lsa, iqtisodiyot shuncha barqaror bo‘ladi.

18. Pul bozori investitsiyalar va jamg‘arish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq.

19. Pul taklifi va talabining nomutanosibligi iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi mumkin.

20. Faqat davlat tashkilotlari pul agregatlari bilan shug‘ullanadi.

2-*ilova*

1. Asosiy tayanch tushunchalar

1. Pul tizimi

2. Pul muomalasi

3. Pul bozori

4. Pulga talab

5. Bitimlar uchun pulga talab (jamg‘armani pul shaklida saqlashning transaktsion maqsadi)

6. Pulga jamg‘arma, moliyaviy aktivlar sifatida talab

7. Pul miqdori

8. Pul muomalasi qonuni

9. Infyatsiya

10. Pulning aylanish tezligi

2. Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

a) Moliya bozorining tarkibiy qismi bo‘lib, pulga talab va taklif asosida umumiyl foiz darajasi, zarur va taklif etilayotgan pulning muvozanatli hajmini belgilovchi bozor;

b) Muomalaga chiqarilgan pul miqdori;

- c) Mazkur mamlakatning pul muomilasini qonuniy asosda tashkil etish tartibi, usullari, xizmat qiluvchi muassasalar;
- d) Kishilarning jamg‘arma sifatida saqlash uchun zarur pul miqdori, foiz stavkasiga teskari mutanosib o‘zgaradi;
- e) Xo‘jalik aylanmasida pulning doimo harakatda bo‘lib, o‘z funksiyalarini to‘laqonli bajarishi;
- f) Firma, korxona, uy xo‘jalingining muomala, ya’ni, oldi-sotdi bitimlari va zahirada saqlayotgan pul mablag‘lari miqdori;

3-ilova

1-masala

Tijorat bankining pul zahiralari 250 mln. pul birligini tashkil etadi. Depozitlar 980 mln. pul birligiga teng. Majburiy zahiralari me’yori 20 %ni tashkil etadi. Agar bank ssuda berish uchun ortiqcha zahiralardan foydalanishga qaror qilsa, pul taklifi qanday o’zgarishi mumkin?

2-masala

Majburiy zahiralari me’yori 20 %ga teng. Tijorat banki ortiqcha zahira sifatida depozitlar summasidan yana 5 %ga ega. Depozitlar miqdori 20 000 ni tashkil etadi. Bank ssuda berish uchun qanday maksimal summadan foydalanishi mumkin?

3-masala

Bank multiplikatori 2,5 ga teng. Pul taklifining qo‘sishma o’sishi 60 mln. so‘mni tashkil etdi. Rezerv me’yorini va pul taklifining qo‘sishma o’sishiga sabab bo‘lgan ortiqcha rezervlar hajmini aniqlang.

4-ilova

TESTLAR

1. Naqd pulga talab qanday bog‘liqlikni ifodalaydi?
 - a) real YAIM dinamikasiga teskari bog‘liqlikni;
 - b) foizning bozor stavkasiga tog’ri bog‘liqlikni;
 - c) narx darajasi dinamikasiga teskari bog‘liqlikni;
 - d) barcha sanalganlar noto‘g‘ri.
2. Pul agregatlarini tuzishda qaysi mezon asosiy qilib olingan?
 - a) Likvidlilik darajasining pasayib borishi;
 - b) Likvidlilik darajasining ko‘tarilib borishi;
 - c) Tanga pullar, qog‘oz pullar;
 - d) Depozitlar.
3. Agar narxlari o‘ssa, unday holatda...

- a) foiz stavkasi o‘zgarishiga ta’sirchan xarajatlar ko‘payadi;
- b) qayd etilgan narxlar qimmatli qog‘oz egalari o‘z xarajatlarini ko‘paytiradilar;
- c) pulga bo’lgan talab va foiz stavkasi darajasi o‘sadi;
- d) qayd etilgan narxlardagi qimmatli qog‘oz egalarining xarid qobiliyati ko‘tariladi.

4. Daromadlarning o‘sishi pulga talab egri chizig‘ini

- a) O‘ngga suradi;
- b) Chapga suradi;
- c) Pastga suradi;
- d) Tepaga suradi.

5. Agar Markaziy bank rasmiy valyuta rezervlari miqdori o‘zgarmasa, unda boshqa teng sharoitlarda, shuni ta’kidlash mumkin.

- a) mamlakat to‘lov balansi qoldig‘i nolga teng;
- b) joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘i doimo nolga teng;
- c) kapital hisobi qoldig‘i doimo nolga teng;
- d) savdo balansi qoldig‘i nolga teng.

6. Pul taklifi ko‘payadi, agar

- a) rezerv me’yori ko‘tarilsa;
- b) “naqd pul-depozitlar” nisbati ko‘paysa;
- c) pul bazasi ko‘paysa;
- d) pul multiplikatori kamaysa.

7. Majburiy zahiralash normasi 12%, ortiqcha rezervlar depozitlar summasining 3 %ini tashkil etadi. Agar jami rezervlar 45 mlrd. so‘mni, naqd pullar esa 150 mlrd. so‘mni tashkil etsa, depozitlar hajmi teng bo‘ladi:

- a) 300 mlrd. so‘mga;
- b) 375 mlrd. so‘mga;
- c) 363,75 mlrd. so‘mga;
- d) 225 mlrd. so‘mga.

8. Depozitlarni majburiy zahiralash normasining oshirilishi:

- a) pul multiplikatorining o‘sishi hisobiga pul taklifini ko‘paytiradi;
- b) pul multiplikatorining pasayishi hisobiga pul taklifini kamaytiradi;

c) hisob stavkasining pasayishi hisobiga pul taklifini ko‘paytiradi;

d) tijorat banklarining kredit berish imkoniyatini kengaytiradi.

9. Depozitlarni majburiy zahiralash normasi 0,25 ga teng. Ochiq bozordagi operatsiyalar orqali Markaziy Bank pul taklifini maksimal 440 mlrd. so‘mga oshirishi mumkin. Bu uchun esa Markaziy Bank:

a) 110 mlrd. so‘mlik obligatsiyalarni sotishi lozim;

b) 440 mlrd. so‘mlik obligatsiyalarni sotishi kerak;

c) 1760 mlrd. so‘mlik obligatsiyalarni sotib olishi lozim;

GLOSSARIY

	Atama o‘zbek tilida	Atama ingлиз tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma’nosi
1.	Pul	Money	Деньги	bu tovarlar va xizmatlar almashinuvini ta’minlaydigan, hisob birligi, qiymat o‘lchovi va to‘lov vositasi sifatida ishlatiladigan iqtisodiy aktivdir
2.	Likvidlilik	Liquidity	Ликвидно сть	aktivlarning tez va qiymatini yo‘qotmagan holda pulga aylanish qobiliyatidir. Pul eng likvid aktiv hisoblanadi, chunki uni hech qanday to‘siksiz darhol ishlatish mumkin.
3.	Pul agregatlari	Monetary aggregates	Денежные агрегаты	iqtisodiyotdagи pul miqdorini o‘lhash uchun ishlatiladigan ko‘rsatkichlar
4.	Nominal foiz stavkasi	Nominal interest rate	Номиналь ная процентн ая ставка	inflyatsiya hisobga olinmagan holdagi foiz stavkasi bo‘lib, qarz oluvchi yoki jamg‘aruvchi uchun rasmiy foiz miqdorini bildiradi.
5.	Real foiz stavkasi	Real interest rate	Реальная процентн ая ставка	inflyatsiya ta’siridan tozalangan foiz stavkasi

6.	Pul taklifi	Money supply	Предложение денег	iqtisodiyotda muomalada bo‘lgan jami pul miqdori bo‘lib, markaziy bank va tijorat banklarining faoliyati orqali tartibga solinadi.
7.	Pul bazasi	Monetary base	Денежная база	markaziy bank tomonidan chiqarilgan naqd pullar va tijorat banklarining markaziy bankdagi zaxiralari yig‘indisidir. U iqtisodiyotdagi pul massasi shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi.
8.	Pul bozori	Money market	Денежный рынок	qisqa muddatli moliyaviy aktivlar, jumladan, naqd pul, qisqa muddatli kreditlar, davlat obligatsiyalari va boshqa likvid vositalar savdosi amalga oshiriladigan bozor. Pul bozori markaziy bank siyosati orqali tartibga solinadi va foiz stavkalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.
9.	Pulga talab	Money demand	Денежный спрос	iqtisodiyot subyektlarining muomala va jamg‘arish maqsadlarida pulni saqlashga bo‘lgan ehtiyojini bildiradi.
10	Pul bozorida muvozana t	Money market equilibrium	Равновесие на денежном рынке	iqtisodiyotda pulga talab va pul taklifi bir-biriga teng bo‘lganda yuzaga keladigan holat. Bu holatda foiz stavkasi shunday darajada bo‘ladiki, iqtisodiyotdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘zlarining barcha tranzaksiyalari, ehtiyyot jamg‘armalari va spekulyativ talablarini qondirishlari mumkin bo‘ladi.

9-MAVZU. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING MOHIYATI VA ZARURLIGI

Tushunchalar va tayanch iboralar

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi, davlatning iqtisodiy vazifalari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari, bevosita usullar, bilvosita usullar.

Muhokama uchun savollar

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang.
2. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi to‘g‘risidagi qanday nazariyalarni bilasiz?
3. Davlatning asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering.
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilang.

1. Iqtisodiyotni tartibga solish – davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta’sir qilish vositasidir.
2. Bozor iqtisodiyotida davlat aralashuvi mutlaqo kerak emas.
3. Davlat tartibga solish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.
4. Iqtisodiyotni tartibga solish faqat soliqlarni oshirish bilan bog‘liq.
5. Monetar va fiskal siyosat tartibga solish vositalariga kiradi.
6. Davlatning iqtisodiyotga ta’siri faqat inqiroz davrida zarur bo‘ladi.
7. Raqobatni rivojlantirish va monopoliyalarning oldini olish tartibga solishning maqsadlaridandir.
8. Iqtisodiyotni tartibga solish bozor mexanizmlarining o‘rnini to‘liq bosadi.

9. Ishsizlikni kamaytirish va inflyatsiyani nazorat qilish tartibga solishning muhim yo‘nalishlaridir.

10. Davlat siyosati samarali bo‘lishi uchun bozordagi talab va taklif hisobga olinishi lozim.

11. Iqtisodiyotni tartibga solish inqirozlarning oldini olishga yordam beradi.

12. Davlat aralashuvi doimo iqtisodiy o‘sishga olib keladi.

13. Fiskal siyosat soliqlar va davlat xarajatlarini boshqarish orqali amalga oshiriladi.

14. Tartibga solish bozor mexanizmlarining erkin ishlashini butunlay cheklaydi.

15. Davlat investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashadi.

16. Pul-kredit siyosati pul massasini nazorat qilish bilan bog‘liq emas.

17. Iqtisodiyotni tartibga solish orqali ijtimoiy tengsizlik kamaytirilishi mumkin.

18. Bozor iqtisodiyotida davlatning hech qanday roli yo‘q.

19. Narxlarni nazorat qilish va subsidiyalar tartibga solish vositalaridan biridir.

20. Iqtisodiy tartibga solishning maqsadi – uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlash.

2-ilova

Asosiy tayanch tushunchalar

1. Iqtisodiyotni tartiblash
2. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi
3. Milliy iqtisodiyot mustaqilligini ta’minlash
4. Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik nazariyasi
5. Iqtisodiyotni tartibga solishning keynscha modeli
6. Iqtisodiyotni tartibga solishning monetar modeli
7. Kouz teoremasi
8. Ratsional kutish nazariyasi
9. Monetar qoida
10. Iqtisodiyotni tartiblashning bevosita usullari

Tushunchalarga mos ta’riflarni aniqlang.

- a) Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash bozor bajara olmaydigan ijtimoiy- iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish;
- b) Iqtisodiyot o'zini-o'zi bozor mexanizmi va bozor regulyatorlari asosida tartibga soladi, ular yordamida mamlakatdagi resurslar to'la ishga solinadi;
- c) Iqtisodiyotni chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, buning uchun chora-tadbirlar belgilash, milliy manfaatlarni himoya qilish;
- d) Bozor o'z-o'zicha iqtisodiyotni samarali tartibga sola olmaydi, resurslardan to'la foydalanishni amalga oshira olmaydi. Shuning uchun davlatning iqtisodiyotga fiskal va pul kredit siyosati orqali faol aralashuvi qo'yilgan maqsadga erishish mumkinligi to'g'risida konsepsiya;
- e) Makroiqtisodiy nisbatlarning bir-biriga mos holda rivojlanib borishi, undagi turli bo'g'inlar faoliyatini bir-biriga bog'liq holda muvozanatlashuviga erishish;
- f) Monetarism tarafdorlari tomonidan ilgari surilgan, unga ko'ra muomaladagi pul massasi yiliga real YaIM o'sishining potensial sur'ati darajasi teng miqdorda o'sishi kerak. Pul massasi barqaror 3-5% o'sishi zarur;
- g) Ijobiy yoki salbiy samarasini kelib chiqadigan muammolarning ma'lum bir qismini davlat aralashmay yechish mumkinligini e'tirof etuvchi konsepsiya. Unga muvofiq tashqi samaraning ma'lum qismi manfaatdor tomonlar o'rtasida ovoza qilinmaydigan "kishi bilmas" individual bitimlar orqali yechish mumkin bo'lgan muammolardir;
- h) Keyschilikka muqobil, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimum darajada muomaladagi pul miqdorini tartibga solish doirasidagina bo'lishi zarurligini asoslovchi konsepsiya. Unga ko'ra narx darajasi muomaladagi pul miqdoriga bog'liq.
- i) Gipoteza, unga muvofiq firmalar va uy xo'jaliklari davlat pul-kredit va byudjet-soliq siyosati orqali iqtisodiyotga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi deya kutishadi va o'z manfaatlaridan kelib chiqib, bu siyosatni samarasiz qilib qo'yadigan turli chora-tadbirlar qo'llashadi;

j) Iqtisodiyotni davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuviga asoslangan vosita va dasturlar orqali tartibga solish.

3-ilova

TESTLAR

1. Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati nima?

- a) Bozorni faqat xususiy sektorga berish
- b) Davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashishini kamaytirish
- c) Bozor munosabatlarini belgilash va boshqarish
- d) Tovarlar ishlab chiqarishni oshirish

2. Iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy maqsadi nima?

- a) Narxlarning doimiy o‘sishini ta’minlash
- b) Iqtisodiy o‘sishni to‘xtatish
- c) Bozorni nazorat qilish va barqarorlikni saqlash
- d) Davlat xarajatlarini kamaytirish

3. Iqtisodiyotni tartibga solishning zaruriyati qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi?

- a) Resurslar taqsimoti va daromadlarning tengligi
- b) Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash
- c) Mamlakatning iqtisodiy ijtimoiy muammolarini hal qilish
- d) Davlat qarzining kamayishi

4. Iqtisodiyotda tartibga solishning eng asosiy usuli qanday?

- a) Ochiq bozor operatsiyalari
- b) Davlat byudjeti va soliqlarni oshirish
- c) Narx va daromadlarni tartibga solish
- d) Iqtisodiy sektorlarga subsidiya ajratish

5. Iqtisodiyotni tartibga solish qanday natijalarga olib keladi?

- a) Iqtisodiy o‘sishning barqarorligi
- b) Mehnat bozorining qisqarishi
- c) Soliq darajasining kamayishi
- d) Iste’molning keskin pasayishi

6. Iqtisodiyotda davlat aralashuvi nimani ta’minlaydi?

- a) Iqtisodiy resurslarning o‘zaro taqsimlanishini
- b) Iqtisodiy barqarorlikni saqlash
- c) Faqat eksport va importni nazorat qilish
- d) Ishlab chiqarishning to‘xtashini

7. Iqtisodiyotning erkin bozor tizimida tartibga solish qanchalik zarur?

- a) U zarur emas, bozor o‘zini o‘zi tartibga soladi
- b) Bozorni davlat to‘liq nazorat qilishi kerak
- c) Davlat faqat ba’zi sohalarda tartibga solishni amalga oshirishi kerak
- d) Bozorning to‘liq erkin bo‘lishi iqtisodiy muammolarga olib keladi

8. Iqtisodiyotni tartibga solish uchun davlat qanday vositalardan foydalanadi?

- a) Faol soliq siyosati va davlat xarajatlari
- b) Tovar ishlab chiqarishni to‘liq nazorat qilish
- c) Faqat narxlarni boshqarish
- d) Bozorni erkin qoldirish

9. Iqtisodiyotda tartibga solishning ijtimoiy ahamiyati nima?

- a) Davlat qarzining kamayishini ta’minlash
- b) Jamiyatda tenglik va barqarorlikni saqlash
- c) Faol davlat sektori yaratish
- d) Xususiy sektoring iqtisodiy faolligini pasaytirish

10. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat va bozor o‘rtasidagi balans nima uchun muhim?

- a) Davlatning iqtisodiy o‘sishni to‘xtatishi uchun
- b) Jamiyatda bozor monopoliyasining paydo bo‘lishini oldini olish uchun
- c) Faqat yuqori soliq stavkalarini belgilash uchun
- d) Yalpi ichki mahsulotni kamaytirish uchun

GLOSSARIY

	Atama o‘zbek tilida	Atama ingliz tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma’nosи
1.	<i>Iqtisodiyotni davlat tomonida n tartibga solish</i>	<i>Government regulation of the economy</i>	<i>Государственное регулирование</i>	Davlat tomonidan iqtisodiyotga aralashuv orqali uni barqarorlashtirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish jarayoni.

			ЭКОНОМИК И	
2.	<i>Iqtisodiyo tni davlat tomonida n tartibga solishning maqsadi</i>	<i>The goal of governme nt regulation</i>	<i>Цель государс твенного регулиров ания экономик и</i>	Bozor iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik va inflyatsiyani kamaytirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash.
3.	<i>Davlatnin g iqtisodiy vazifalari</i>	<i>The economic functions of governme nt</i>	<i>Экономи ческие функции государс тва</i>	Bozorni tartibga solish, daromadlarni qayta taqsimlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ijtimoiy muhofaza tizimini qo'llab-quvvatlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash.
4.	<i>Iqtisodiyo tni davlat tomonida n tartibga solishning usullari</i>	<i>Methods of governme nt regulation of the economy</i>	<i>Методы государс твенного регулиров ания экономик и</i>	Iqtisodiyotni tartibga solishning ikki asosiy usuli mavjud – bevosita va bilvosita usullar. Bevosita usullar qonunchilik va nazorat orqali amalga oshirilsa, bilvosita usullar soliq va kredit-moliyaviy vositalar yordamida amalga oshiriladi.
5.	<i>Bevosita usullar</i>	<i>Direct methods</i>	<i>Прямые методы</i>	Davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni bevosita nazorat qilish, shu jumladan, qonunlar, kvotalar, standartlar, litsenziyalar va davlat buyurtmalari orqali tartibga solish.
6.	<i>Bilvosita usullar</i>	<i>Indirect methods</i>	<i>Косвенн ые методы</i>	Bozor mexanizmlariga ta'sir etish orqali tartibga solish, masalan, soliq siyosati, kredit-moliya siyosati va monetar choralar orqali iqtisodiyotni boshqarish.

10-MAVZU: PUL-KREDIT SIYOSATINING MAQSADLARI VA DASTAKLARI

Tushunchalar va tayanch iboralar

Davlatning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvining zarurli, qattiq va yumshoq pul-kredit siyosati, ochiq bozordagi operatsiyalar, hisob-kitob stavkasi, majburiy bank zaxira me'yori, pul taklifi, pul, pul multiplikatori

Muhokama uchun savollar

1. Markaziy bank va tijorat banklari funksiyalarini tushuntiring.
2. Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Ochiq bozordagi operatsiyalarning pul taklifiga ta'siri mexanizmi qanday bo'ladi?
4. Qayta moliyalash stavkasining o'zgartirilishi pul taklifiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Majburiy zahiralash normasi qaysi maqsadlarda qo'llaniladi va uning pasaytirilishi oqibatlari qanday bo'ladi?
6. Pul-kredit siyosatini amalga oshirish mexanizmini tushuntiring.
7. Yumshoq va qattiq pul kredit siyosati tushunchalariga izoh bering.
8. Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirishning muhimligi nimalar bilan izohlanadi?

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To‘g‘ri yoki noto‘g‘riliгини belgilang.

1. Pul-kredit siyosati – Markaziy bank tomonidan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun amalga oshiriladi.
2. Bu siyosat faqat tijorat banklari faoliyatini cheklash uchun qo'llaniladi.
3. Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi inflyatsiyani nazorat qilishdir.
4. Markaziy bank faqat valyuta kurslarini boshqarish bilan shug'ullanadi.

5. Foiz stavkalarini oshirish inflyatsiyani pasaytirishga yordam beradi.
6. Pul-kredit siyosati iqtisodiy o'sishga ta'sir qilmaydi.
7. Pul massasini tartibga solish orqali ishsizlik darajasi boshqarilishi mumkin.
8. Markaziy bankning asosiy dastaklaridan biri ochiq bozor operatsiyalaridir.
9. Pul-kredit siyosati qisqa muddatli iqtisodiy o'zgarishlarga ta'sir qilmaydi.
10. Majburiy zahira normasini o'zgartirish tijorat banklarining kredit berish imkoniyatlariga ta'sir qiladi.
11. Pul-kredit siyosati orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirish mumkin.
12. Markaziy bank tijorat banklarining kredit siyosatiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.
13. Foiz stavkasining oshirilishi kredit olishni qimmatlashtiradi va pul massasini kamaytiradi.
14. Markaziy bankning pul-kredit siyosati doimo bir xil strategiya asosida yuritiladi.
15. Inflyatsiya oshganda Markaziy bank foiz stavkalarini oshirish orqali uni pasaytirishga harakat qiladi.
16. Pul-kredit siyosati fiskal siyosat bilan uzviy bog'liq emas.
17. Kredit bozorining barqarorligi pul-kredit siyosatining muhim maqsadlaridan biridir.
18. Markaziy bank faqat davlat sektori uchun pul-kredit siyosatini yuritadi.
19. Pul-kredit siyosatining ekspansion va restriktiv turlari mavjud.
20. Pul taklifini oshirish iqtisodiy o'sishga har doim ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2-ilova

Mashqlar va masalalar

1-masala

Tijorat bankining pul zaxiralari 250mln. pul birligini tashkil etadi. Depozitlar 980 mln. pul birligiga teng. Majburiy zaxiralar me'yori 20 % ni tashkil etadi. Agar bank ssuda berish uchun ortiqcha zaxiralardan foydalanishga qaror qilsa, pul taklifi qanday o'zgarishi mumkin?

2-masala

Majburiy zaxiralar me'yori 20%ga teng. Tijorat banki ortiqcha zaxira sifatida depozitlar summasidan yana 5%ga ega. Depozitlar miqdori 20 000 ni tashkil etadi. Bank ssuda berish uchun qaysi maksimal summadan foydalanishi mumkin?

3-ilova

Asosiy atamalar va tushunchalar

- a)** tijorat banklari;
- b)** markaziy bank;
- c)** muddatli omonatlar;
- d)** hisob birligi;
- e)** M_1 ;
- f)** aktivlar tomonidan pullarga talab;
- g)** bitimlar uchun pullarga talab;
- h)** M_2 ;
- i)** banklarning aktiv operasiyalari;
- j)** M_3 ;
- k)** muomala vositasi;
- l)** chek omonatlar;
- m)** pul bozori;
- n)** chek bo'lмаган jamg'ariladigan omonatlar;
- o)** qiymatni saqlash vositasi;
- p)** sul agregati;
- q)** pulga umumiy talab;
- r)** banklarinig passiv operasiyalari;
- s)** qog'oz pullar;
- t)** "dekran pullar";
- u)** pullar qiymati;

Tushunchalarga mos ta'riflarni aniqlang

1. Bank xizmatlarining keng doirasini, avvalo talab qilib olinadigan hisobvaraqlarni ochish va qarzlar berish xizmatlarini taklif etuvchi banklar.

2. Muomala vositasi sifatida foydalanish uchun zarur pullar miqdori: YaMM nominal hajmi o'zgarishiga to'g'ri bog'liqlikda o'zgaradi.

3. Tijorat banklari yoki jamg'arma muassasalaridagi chek yozib berish mumkin bo'lgan omonatlar.

4. Bitimlar uchun pullarga talab va aktivlar tomonidan pullarga talab yig'indisi

5. Vazifasi pul muomalasini tartibga solish, milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, yagona pul-kredit siyosatini o'tkazish, hisob-kitoblarni va xazina xizmatini tashkil etish, tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari faoliyatini nazorat qilish tashqi savdo faoliyati bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish bo'lgan bank

6. Banklar o'z ixtiyoridagi mavjud resurslarni joylashtirishga qaratilgan operatsiyalar

7. Tovar va xizmatlar sotilgandan so'ng saqlanadigan va kelajakda xarid qobiliyatini ta'minlovchi aktiv.

8. O'z ichiga M₁ chekda bo'limgan jamg'arma omonatlari va uncha katta bo'limgan muddatli omonatlarni o'z ichiga oluvchi pul agregati

9. Pul massasining muqobil o'lchovlari bo'lib xizmat qiluvchi likvid aktivlarning o'ziga xos bir nechta guruhlaridan biri.

10. Kredit muassasalaridagi faqat shartnomada belgilangan davr tugagandan keyingina mablag'lar jarimasiz olinishi mumkin bo'lgan foiz keltiruvchi omonatlar

11. Insonlar jamg'armalar sifatida saqlashni xohlagan pullar miqdori (pul ko'rinishidagi moliyaviy aktivlar hajmi); foiz stavkasi miqdoriga teskari bog'liqlikda o'zgaradi.

12. Chek yozib berilishi mumkin bo'limgan jamg'arma hisobvaraq

13. Pulga bo'lgan talab va taklifning foiz stavkasi darajasini belgilovchi bozor

14. Tovarlar va xizmatlar qimmatini o'lchash hamda taqqoslash uchun qo'llaniladigan pul birligi.

15. M₂. va yirik muddatli omonatlarni o'z ichiga oluvchi pul agregati

16. Tovar va xizmatlarni sotib olish, shuningdek qarzlarni to'lash uchun ishlatiladigan pullar.

17. Naqd metall va qog'oz pullarni hamda chekdagi omonatlarni o'z ichiga oluvchi pul agregati

18. Muomala vositasi hisoblanmasa-da, pulga tez aylantirish mumkin bo'lgan yuqori likvidlik xususiyatiga ega moliyaviy aktivlar

(qisqa muddatli jamg‘arma omonatlari, muddatli omonatlar, qisqa muddatli davlat qimmatli qog‘ozlari va jamg‘arma obligatsiyalari).

19. Banklar aktiv operasiyalarni amalga oshirish uchun o‘z resurslarini shakllantirishda foydalanadigan operatsiyalar.

20. Muomala vositasi sifatida qo‘llanadigan qog‘oz pullar.

21. Pul birligiga almashtirish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori, pul birligining xarid qobiliyati, narx darajasiga teskari miqdor.

4-ilova

TESTLAR

1. Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi nima?

- a) Soliq tizimini isloh qilish
- b) Inflyatsiyani boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni saqlash
- c) Ishsizlikni kamaytirish
- d) Tovar ishlab chiqarishni oshirish

2. Pul-kredit siyosatining asosiy vositasi nima?

- a) Soliq siyosati
- b) Ochiq bozor operatsiyalari
- c) Davlat byudjeti
- d) Investitsiya dasturlari

3. Pul-kredit siyosatining dastaklari qaysi vazifalarni bajaradi?

- a) Ommaviy investitsiyalarni rag‘batlantirish
- b) Pul ta’mintoni nazorat qilish va barqarorlashtirish
- c) Yalpi ichki mahsulotning kamayishiga yordam berish
- d) Soliq yig‘ish va davlat qarzlarini kamaytirish

4. Pul-kredit siyosatining qisqa muddatli maqsadi nima?

- a) Davlat byudjeti daromadlarini oshirish
- b) Iqtisodiy o‘sishni sur‘atlantirish
- c) Inflyatsiyani kamaytirish va barqaror iqtisodiy sharoitlarni yaratish
- d) Tovar ishlab chiqarishni to‘liq boshqarish

5. Pul-kredit siyosatining kengaytiruvchi turi qanday maqsadga xizmat qiladi?

- a) Narxlar darajasining oshishini ta’minlash
- b) Yalpi ichki mahsulotni oshirish va ish o‘rinlarini yaratish
- c) Soliq darajalarini ko‘tarish
- d) Pul ta’mintoni qisqartirish

- 6. Pul-kredit siyosatining cheklovchi turi qanday maqsadga qaratilgan?**
- Investitsiyalarni ko‘paytirish
 - Inflyatsiyani boshqarish va pul ta’mintonini qisqartirish
 - Soliq darajalarini pasaytirish
 - Ishsizlikni kamaytirish
- 7. Ochiq bozor operatsiyalari qanday ta’sir ko‘rsatadi?**
- Pul ta’mintonini oshiradi
 - Davlat qarzini kamaytiradi
 - Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rag‘batlantiradi
 - Xalqaro savdo bilan bog‘liq soliq siyosatini nazorat qiladi
- 8. Pul-kredit siyosatining asosiy vazifalaridan biri qanday?**
- Bozor monopoliyalarini kuchaytirish
 - Inflyatsiyani nazorat qilish
 - Yalpi ichki mahsulotni kamaytirish
 - Yalpi eksportni oshirish
- 9. Pul-kredit siyosatining doimiy maqsadi nima?**
- Narxlar darajasining ortishini to‘xtatish
 - Iqtisodiy o‘sishni va barqarorlikni ta’minlash
 - Davlat xarajatlarini kamaytirish
 - Soliq darajalarini oshirish
- 10. Pul-kredit siyosatining dastaklaridan biri sifatida qaysi vosita ishlatiladi?**
- Soliq stavkalarini pasaytirish
 - Ochiq bozor operatsiyalari orqali pul ta’mintonini boshqarish
 - Davlat qarzlarini ko‘paytirish
 - Qishloq xo‘jaligiga subsidiyalar ajratish

GLOSSARY

	Atama o‘zbek tilida	Atama ingliz tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma’nosi
1.	Pul-kredit siyosati	Monetary policy	Монетар ная политика	to‘liq bandlik sharoitida jami maxsulotni ishlab chiqarishga inflaytsiyani ta’sirini

				kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o‘zgartirish tushiniladi. Uning yordamida xar qanday davlat, mamlakatda iqtisodiy barqaror-likni ta’minlash vazifasini xayotga taqdim etadi.
2.	<i>Yumshoq pul kredit siyosati</i>	<i>Soft monetary policy</i>	<i>Мягкая монетарная политика</i>	Markaziy Bank bir vaqting o‘zida ham pul massasini, ham foiz stavkasini o‘zgartirmasdan ushlab tura olmaydi. Pulga talab o‘sigan holatlarda maqsad foiz stavkasining barqarorligini ta’minlash bo‘lsa, Markaziy Bank pul taklifini oshirishga majbur bo‘ladi. Bu tadbir yumshoq pul kredit siyosati deb yuritiladi.
3.	<i>Qattiq pul-kredit siyosati</i>	<i>Hard monetary policy</i>	<i>Твёрдая монетарная политика</i>	Pul massasining ko‘payib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun pul taklifini cheklash siyosatini qo’llash foiz stavkasining ko‘tarilishiga olib keladi va bu siyosat qattiq pul-kredit siyosati deb yuritiladi.
4.	<i>Ochiq bozordagi operatsiyalar</i>	<i>Open-market operations</i>	<i>Операции на открытом рынке</i>	Pul bozorida muomalada pul miqdori ortiqchaligi mavjud deb faraz qilamiz. Tabiiyki Markaziy bank ortiqcha pul massasini kamaytirish yoki yo‘q qilishga xarakat qiladi. Buning uchun, u ochiq bozorda o‘zining qimmatli qog‘ozlarini aholi va banklarga taklif etadi, ular esa uni xarid qila boshlaydilar.
5.	<i>Hisob-kitob stavkasi</i>	<i>Discount rate</i>	<i>Учётная ставка</i>	Pul - kredit siyosatini amalga oshirishning yana bir vositasi, bu hisob-kitob stavkasi siyosatidir. Hisob-kitob stavkasini Markaziy bank

				belgilaydi. Agar ushbu stavka past bo'lsa, unda tijorat banklari ko'proq kredit olishga xarakat qiladilar.
6.	<i>Majburiy bank zaxira me'yori</i>	<i>Reserve requirements</i>	<i>Нормы резервирования</i>	Pul kredit siyosatining vositalaridan yana biri bu majburiy bank zaxira me'yorini o'zgartirish siyosatidir. Majburiy bank zaxira me'yorini Markaziy bank belgilaydi va uni o'zgartirib turadi.
7.	<i>IDTTS maqsadi -</i>	<i>Role of government in regulation of economy</i>	<i>Роль государства в регулировании экономики</i>	ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda uning o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirishdan iborat.
8.	<i>Pul multiplikatori</i>	<i>The money multiplier</i>	<i>Денежный мультипликатор</i>	$(Cr + 1) / (Cr + rr)$ nisbat pul multiplikatori deb yuritilib bir so'mlik pul bazasi hisobiga necha so'mlik pul taklifi yuzaga kelishini ko'rsatadi. Demak, pul taklifi pul bazasi va pul multiplikatori miqdoriga bog'liq ekan. Pul multiplikatori pul bazasining bir miqdorga oshishi natijasida pul taklifi qanday o'zgarishini ko'rsatadi.

11-MAVZU: FISKAL SIYOSATNING MOHIYATI VA USULLARI

Tushunchalar va tayanch iboralar

Davlat byudjeti, soliqlar, Laffer egri chizig'i, soliq stavkasi, diskret va nodiskret fiskal siyosat, ekspansion va restriksion fiskal siyosat, davlat byudjeti defitsiti va profitsiti, davlat byudjeti defitsitini qoplashning inflatsion va noinflatsion yo'llari.

Muhokama uchun savollar

1. Davlat byudjetiga ta'rif bering va uning xarajatlari tarkibini sanab o'ting.
2. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ixarajatlarida qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda?
3. Soliqlarning funksiyalariga izoh bering.
4. O'zbekiston Respublikasi byudjetiga soliq tushumlaring tarkibi va miqdoridagi tendensiyalarni izohlab bering.
5. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosatning qisqa va uzoq muddatdagi natijalarini tushuntirib bering.
6. Davlat xarajatlarining multiplikatori kattaligi qaysi ko'rsatkichlarga bog'liq?
7. Diskret fiskal siyosatining kamchiliklarini tushuntirib bering.
8. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi qanday paydo bo'ladi, ular qay yo'sinda tugatiladi?

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To'g'ri yoki noto'g'riliгини belgilang.

1. Fiskal siyosat – davlatning soliqlar va byudjet xarajatlari orqali iqtisodiyotni boshqarish usulidir.
2. Fiskal siyosat faqat davlat daromadlarini oshirishga qaratilgan.
3. Soliqlarni kamaytirish iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi.
4. Davlat xarajatlarini ko'paytirish iqtisodiy o'sishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.
5. Fiskal siyosatning ekspansion va restriktiv shakllari mavjud.

6. Restriktiv fiskal siyosat iqtisodiy faollikni oshirish uchun qo'llaniladi.
7. Byudjet defitsitini kamaytirish fiskal siyosatning asosiy maqsadlaridan biridir.
8. Davlatning fiskal siyosati inflyatsiya va ishsizlikka ta'sir qilmaydi.
9. Soliq tizimini samarali boshqarish fiskal siyosatning muhim usullaridan biridir.
10. Fiskal siyosat faqat markaziy hukumat tomonidan amalga oshiriladi.
11. Fiskal siyosat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yoki sekinlashtirish uchun ishlataladi.
12. Soliq tushumlari davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun ahamiyatsizdir.
13. Davlat xarajatlarini kamaytirish inflyatsiyani pasaytirishga yordam beradi.
14. Har qanday fiskal siyosat natijalari darhol seziladi.
15. Defitsitli byudjet davlat qarzining ortishiga olib kelishi mumkin.
16. Fiskal siyosat faqat davlat daromadlarini taqsimlash bilan bog'liq.
17. Soliq stavkalarini oshirish davlat byudjeti daromadlarini ko'paytirishi mumkin.
18. Kichik bizneslar fiskal siyosatdan mustasno hisoblanadi.
19. Davlat subsidiyalarini va transfer to'lovlari ham fiskal siyosatning tarkibiy qismidir.
20. Fiskal siyosat iqtisodiyotga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2-ilova

Masalalarni ishlang.

1. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan:

Iste'mol funksiyasi $C = 800 + 0,9 (Y - T)$,
 davlat xarajatlari $G = 500$,
 investisiyalar hajmi $I = 360$,
 soliqlar hajmi $T=400$.
 Quyidagilarni aniqlang:

- a) muvozanatli YaIM;
- b) soliqlar va davlat xarajatlari multiplikatorlari;
- v) agar potensial YaIM 15000 teng bo‘lsa, unga erishish uchun davlat xarajatlarini qay tarzda o‘zgartirish zarur?

2. Iqtisodiy tizim quyidagi ko‘rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

Iste’mol funksiyasi $C=60+0,8 Yd$.

Rejalashtirilgan investisiyalar daromadga bog‘liq emas va $I=40$ birlik.

Davlat xarajatlari $G=20$ birlik.

Topilsin: A) muvozanatli YaIM; B) xarajatlar multiplikatori miqdorini;

V) davlat xarajatlari 10 birlikka ko‘payganda muvozanatli daromad darajasini.

3. Tovar va xizmatlarni davlat xaridi = 50,

transfert to‘lovleri = 10,

davlat qarzi bo‘yicha foiz stavkasi = 10% (davlat qarzi=20),

soliq tushumlari=40 bo‘lsa,

davlat byudjeti holatini aniqlang (defitsit yoki profisit).

4. Yopiq iqtisodiyotda soliqlarning 20 mlrd.ga o‘sishi va u bilan bog‘liq yalpi talabning qisqarishi YaIMning 60 mlrd.ga kamayishiga olib keldi. YaIM darajasi investisiya va soliqlar darajasiga ta’sir etmaydi. Xarajatlar multiplikatorini aniqlang.

5. Davlat xaridi = 500;

soliq funksiyasi $T=0,4Y$;

Transferlar funksiyasi $TR=0,2 Y$;

Narxlar darajasi $R = 1$ ko‘rinishiga ega.

Davlat qarzi=1000. Uning foiz stavkasi 1 foiz.

Ishlab chiqrishning real xajmi=2000, potensial qiymati=2500 tashkil etsa,

a) davlat byudjeti saldosini,

b) davlat byudjetining haqiqiy, tarkibiy va davriy defitsiti xajmini aniqlang.

TESTLAR

1. Fiskal siyosat nima?

- a) Davlatning iqtisodiy faoliyatini tartibga solish
- b) Iqtisodiy resurslarni taqsimlash
- c) Davlat xarajatlari va soliqlar orqali iqtisodiyotni boshqarish
- d) Bozorni erkinlashtirish

2. Fiskal siyosatning asosiy maqsadi nima?

- a) Inflyatsiyani oshirish
- b) Iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ish o'rinalarini yaratish
- c) Davlat qarzini kamaytirish
- d) Tovar ishlab chiqarishni qisqartirish

3. Fiskal siyosatning usullaridan biri qaysi?

- a) Soliq stavkalarini oshirish
- b) Tovarlarni cheklash
- c) Tashqi savdo cheklovlarini kamaytirish
- d) Pul ta'minotini kengaytirish

4. Fiskal siyosatning kengaytiruvchi turi qanday ta'sir qiladi?

- a) Soliq stavkalarini oshiradi
- b) Davlat xarajatlarini oshiradi va soliqlarni kamaytiradi
- c) Inflyatsiyani oshiradi
- d) Ishlab chiqarishni qisqartiradi

5. Fiskal siyosatning cheklovchi turi qanday maqsadga qaratilgan?

- a) Inflyatsiyani oshirish
- b) Iqtisodiy o'sishni sur'atlantirish
- c) Davlat qarzini kamaytirish va inflyatsiyani boshqarish
- d) Yalpi ichki mahsulotni kamaytirish

6. Fiskal siyosatning asosiy vositalaridan biri qaysi?

- a) Soliq siyosati
- b) Investitsiya dasturlari
- c) Pul-kredit siyosati
- d) Eksportni rag'batlantirish

7. Fiskal siyosatni amalga oshiruvchi asosiy organni kim hisoblanadi?

- a) Markaziy bank

- b) Moliyaviy tashkilotlar
- c) Hukumat va davlat byudjeti
- d) Xalqaro moliya institatlari

8. Fiskal siyosatning doimiy maqsadi nima?

- a) Inflyatsiyani oshirish
- b) Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash
- c) Tashqi savdoni rivojlantirish
- d) Soliq yig'ishni kamaytirish

9. Fiskal siyosatning ijtimoiy maqsadlari qaysi?

- a) Resurslarni samarali taqsimlash
- b) Davlat qarzini kamaytirish
- c) Jamiyatda iqtisodiy tenglikni yaratish
- d) Tovar narxlarini oshirish

10. Fiskal siyosat qanday holatda samarali bo'ladi?

- a) Bozorning to'liq erkinligini ta'minlash
- b) Davlatning soliq siyosati va xarajatlarini muvozanatlash
- c) Tovarlar narxlarini qat'iy nazorat qilish
- d) Xalqaro moliya institutlariga qaram bo'lish

GLOSSARIY

	Atama o'zbek tilida	Atama ingliz tilida	Atama rus tilida	Atamaning ma'nosi
1.	<i>Byudjet-soliq siyosati</i>	<i>Fiscal policy</i>	Фискальная (бюджетно-налоговая) политика	iqtisodiyotda to'liq bandlilikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi.
2.	<i>Diskret fiskal siyosat</i>	<i>Discrete fiscal policy</i>	Дискреционная фискальная	Hukumatning bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, inflyatsiya sur'atlari va to'lov balansi holatini

			Я политика	o‘zgartirishga yo‘naltirilgan maxsus qarorlarni qabul qilishi natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti qoldig‘ini maqsadli o‘zgartirilishi
3.	Nodiskret fiskal siyosat	Indiscrete fiscal policy	Недискреционная (автоматическая) фискальная политика	davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti qoldig‘ini avtomatik o‘zgartirishni ko‘zda tutadi. Nodiskret fiskal siyosat o‘rnatilgan barqarorlashtirgichlarga asoslanadi. Rivojlangan davlatlarda o‘rnatilgan barqarorlashtirgichlari rolini progressiv soliq tizimi, davlat transfertlari tizimi va foydada ishtirok etish tizimi o‘ynaydi. Nodiskret fiskal siyosat davriy tebranishlarni yumshatish uchun hukumatning bevosita aralashuvini talab etmaydi.
4.	Davlat byudjeti	Government budget	Государственный бюджет	Mamlakat moliya tizimining markaziy unsuri bo‘lib makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Davlat byudjeti moliyaviy balans sifatida ikki qismdan iborat bo‘lib, bu qismlarni sodda qilib daromadlar va xarajatlar deb atash mumkin.
5.	Byudjet taqchilligi	Deficit of budget	Бюджетный дефицит	Moliyaviy yil natijalariga ko‘ra davlat byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo‘lishi.

6.	<i>Davriy taqchillik (ortiqchalik)</i>	<i>Cyclic deficit (excess) of budget</i>	Циклический дефицит	iqtisodiy faollik pasayishi (oshishi) sharoitida soliq tushumlarining avtomatik kamayishi (oshishi) va davlat xarajatlarining avtomatik oshishi (kamayishi) natijasida yuzaga keladigan davlat byudjeti taqchilligi (ortiqchaligi)dir.
7.	<i>Soliqlar</i>	<i>Taxes</i>	Налоги	Majburiy to‘lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to‘lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o‘z mulkiga aylantiruvchi davlat o‘rtasida yuzaga keladi. Soliqlar fiskal, qayta taqsimlash, rag‘batlantirish va nazorat funksiyalarini bajaradi.
8.	<i>Soliq tizi mi</i>	<i>System of tax</i>	Налоговая система	Markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisi.
9.	<i>Fiskal ekspansiya</i>	<i>Expansion fiscal policy</i>	Экспансионистская (стимулирующая) фискальная политика	Iqtisodiyot turg‘unlik yoki pasayish davrida bo‘lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag‘batlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi. Ya’ni, davlat qisqa muddatda iqsodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish, yohud ikkalasini bir vaqtning o‘zida olib borish evaziga hal etadi.

10	<i>Fiskal restriksiya</i>	<i>Restriction fiscal policy</i>	<i>Рестрикционная (контрактивная) фискальная политика</i>	Iqtisodiyotda to‘liq bandlik va ortiqcha talab natijasida infliyatsiya kelib chiqishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat-fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini (G) kamaytirish yoki soliqlarni (T) oshirish yoki bo‘lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o‘sishini chegaralashdan iborat.
----	---------------------------	----------------------------------	------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

12-MAVZU: IQTISODIY O‘SISHNING MOHIYATI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Tushunchalar va tayanch iboralar

Iqtisodiy o‘sish, to‘liq bandlilik, real YAIM, talab va taqsimot omillari, intensiv iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy o‘sishning keynscha va neokllasik modellari, Domar modeli, R. Xarrod modeli

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy o‘sish tushunchasining iqtisodiy mohiyati nimada va u qanday o‘lchanadi?
2. Iqtisodiy o‘sishning omillari qaysilar va uning qanday turlari mavjud?
3. Iqtisodiy o‘sishning Keyns va klassik modellarini tavsiflab bering.
4. R.Solouning neoklassik modelining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

VAZIFALAR VA TOPSHIRIQLAR

1-ilova

To‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilang.

1. Iqtisodiy o‘sish – mamlakatning ishlab chiqarish hajmining doimiy ortib borishidir.
2. Iqtisodiy o‘sish faqat aholi sonining ko‘payishi bilan bog‘liq.
3. Ishlab chiqarish hajmining ortishi iqtisodiy o‘sishning asosiy belgilaridan biridir.
4. Iqtisodiy o‘sish faqat tabiiy resurslarning ko‘pligi bilan ta’milanadi.
5. Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi.
6. Iqtisodiy o‘sish har doim barqaror bo‘lib qoladi.
7. Sarmoyalar hajmining ortishi iqtisodiy o‘sishga ijobjiy ta’sir qiladi.
8. Ishchi kuchining malakasi iqtisodiy o‘sishga ta’sir etmaydi.
9. Iqtisodiy o‘sish mamlakatning ijtimoiy farovonligini oshirishga yordam beradi.

10. Siyosiy beqarorlik iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
11. Iqtisodiy o'sish yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining ortishi bilan o'lchanadi.
12. Faqat tabiiy resurslarga tayanish uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.
13. Mehnat unumdorligini oshirish iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qiladi.
14. Iqtisodiy o'sish faqat ichki investitsiyalar bilan bog'liq.
15. Xalqaro savdo va investitsiyalar iqtisodiy o'sishga turtki beradi.
16. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari doimo ijobiy natija beradi.
17. Hukumatning barqaror iqtisodiy siyosati o'sish uchun muhim omildir.
18. Korrupsiya va byurokratiya iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytirishi mumkin.
19. Iqtisodiy o'sish faqat texnologik taraqqiyot bilan bog'liq.
20. Ta'lim va ilm-fan taraqqiyoti iqtisodiy o'sishga yordam beradi.

2-illova

Masalalar

1. Uch yil davomida mehnat sarfi miqdori va uning unumdorligi to'g'risidagi ma'lumotlar

Yil	Mehnat sarfi (soat)	Mehnat unumdorligi	Real YaIM hajmi,
1	1000	100	
2	1000	105	
3	1100	105	

Aniqlang: a) Barcha yillar uchun YaIM real hajmini; b) birinchi yilga nisbatan ikkinchi yili mehnat unumdorligi necha foizga o'sdi; buning natijasida (mehnat sarfi o'zgarmagan holda) YaIMning real hajmi qancha foizga ortdi? v) ikkinchi yil bilan qiyoslaganda uchinchi yilda mehnat hajmi qancha foizga o'sdi; buning natijasida (mehnat unumdorligi o'zgarmagan holda) YaIM necha foizga ortdi?

2. Jadval ma'lumotlari asosida yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishida ekstensiv va intensiv omillarning ulushini hisoblang.

	O'lchov birligi	2023	2024	O'sish sur'ati
band aholi soni	Mln. kishi	386	399	
Mehnat unumdorligi	1 band aholiga ming so'mda	112,5	134,2	
YaIM hajmi				

	YaIM absolyut o'sishi	YaIM o'sishi dagi ulushi
YaIM usishi		100%
Shu jumladan:		
Band aholi soni o'sishi hisobiga		
Mehnat unumdorligi o'sishi hisobiga		

3-ilova

TESTLAR

1. Iqtisodiy o'sish nima?

- a) Narxlarning oshishi
- b) Ishlab chiqarish hajmining doimiy ortishi
- c) Aholi sonining ko'payishi
- d) Davlat byudjetining ortishi

Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omillardan qaysi biri to'g'ri?

- a) Innovatsiyalar
- b) Aholi sonining kamayishi
- c) Mehnat unumdorligining pasayishi
- d) Ishlab chiqarishning qisqarishi

2. Qaysi omil iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin?

- a) Sarmoyalar hajmining oshishi
- b) Texnologik taraqqiyot
- c) Siyosiy beqarorlik
- d) Ta'lim tizimining takomillashuvi

- 3. Iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichi nima?**
 - a) Yalpi ichki mahsulot (YaIM)
 - b) Daromadlar o'sishi
 - c) Inflyatsiya darajasi
 - d) Ishsizlik darajasi
- 4. Qaysi omil iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi?**
 - a) Tabiiy resurslarning kamayishi
 - b) Mehnat unumdoorligining oshishi
 - c) Korrupsiya darajasining ortishi
 - d) Ishlab chiqarishning qisqarishi
- 5. Iqtisodiy o'sish uchun qanday sarmoya zarur?**
 - a) Faqat ichki sarmoyalar
 - b) Faqat tashqi sarmoyalar
 - c) Ichki va tashqi sarmoyalar kombinatsiyasi
 - d) Sarmoya zarur emas
- 6. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun davlat qanday siyosatni yuritishi kerak?**
 - a) Chekllovchi siyosat
 - b) Barqaror iqtisodiy siyosat
 - c) Faol raqobatni to'xtatish siyosati
 - d) Narxlarni past ushlab turish siyosati
- 7. Qaysi omil iqtisodiy o'sish uchun muhim bo'Imagan omildir?**
 - a) Innovatsiyalar
 - b) Ta'lif va ilm-fan taraqqiyoti
 - c) Korrupsiya
 - d) Xalqaro savdo
- 8. Iqtisodiy o'sishning ta'sirchan omillaridan biri nima?**
 - a) Mehnat resurslarining kamayishi
 - b) Malakali ishchi kuchining mavjudligi
 - c) Tabiiy resurslarning kamayishi
 - d) Ishsizlikning ortishi.

GLOSSARIY

1	Iqtisodiy o'sish	Economic growth	Экономический рост	To'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi
----------	-------------------------	------------------------	---------------------------	------------------------------------------

			potensial chiqarish uzoq ko‘payishi tendensiyasini anglatadi. Iqtisodiy o‘sish yalpi taklifning o‘sishini yoki boshqacha aytganda, haqiqiy va potensial YAIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy o‘sish nafaqat mamlakat real daromadlarining o‘sishi, shuningdek, jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlarning ortishini ham anglatadi.	ishlab darajasini muddatli
2	<i>Real iqtisodiy o‘sish</i>	<i>Real economic growth</i>	<i>Реальный экономический рост</i>	Mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari dinamkasini aniqlash uchun ishlataladi. Bunda iqtisodiy o‘sish real YAIMni o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi.
3	<i>Potensial YAIM hajmi</i>	<i>Potential GDP</i>	<i>Потенциальный ВВП</i>	To‘liq bandlik sharoitida barcha resurslardan foydalangan holda yaratilishi mumkin bo‘lgan YAIM
4	<i>Iqtisodiy o‘sish omillari</i>	<i>Factors of economic growth</i>	<i>Факторы экономического роста</i>	Real ishlab chiqarish hajmlarining uzoq muddatli o‘sishi

			sur'atlarini, ko'lamlarini, samaradorligi va sifati oshishini belgilovchi hodisa va jarayonlar.
5	<i>Ekstensiv iqtisodiy o'sish</i>	<i>Extensive economic growth</i>	Экстенсивный экономический рост Agar iqtisodiy o'sish qo'shimcha resurslarni jalgan etish hisobiga ta'minlansa va jamiyatdagi resurslardan foydalanishning shakllangan o'rtacha samaradorligi darajasini oshirmasa ekstensiv iqtisodiy o'sish deyiladi.
6	<i>Intensiv iqtisodiy o'sish</i>	<i>Intensive economic growth</i>	Интенсивный экономический рост Iqtisodiy o'sishning intensiv turi ishlab chiqarish samaradorligining oshishi bilan bog'liq. U foydalilanayotgan resurs birligiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishni, ishlab chiqarishning texnik xususiyatlarini yaxshilashni ko'zda tutadi.
7	<i>Iqtisodiy o'sish moldellari</i>	<i>Models of economic growth</i>	Модели экономического роста Iqtisodiy o'sish moldellari yalpi ishlab chiqarishning uzoq muddatli ko'payishi taklif omillariga tayangan holda tahlil etish imkonini beradi.

8	<i>Iqtisodiy o'sishning Keynscha modeli</i>	<i>Keynesian model of economic growth</i>	<i>Кейнсианская модель экономического роста</i>	Mazkur model Keynsning yalpi talab to‘g‘risidagi bosh g‘oyasiga tayanadi. Ya’ni, iqtisodiyotni uzoq muddatli mutanosib rivojlanishining hal qiluvchi sharti yalpi talabni oshirilishi deb qaraladi, iqtisodiy o’sishning asosiy omili investitsiyalar hisoblanadi.
9	<i>R.Solouning iqtisodiy o’sish modeli</i>	<i>R.Solou's model of economic growth</i>	<i>Модель экономического роста Р.Солоу</i>	R.Solou modeli iqtisodiy o’sishning manbai-investitsiyalar, ishchi kuchi soni va texnik taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni yoritish imkonini beradi. Davlat iqtisodiy o’sishga jamg’arma me’yori va texnik taraqqiyotni jadallashtirish orqali ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar	
1.	Principles of Economics, 6 th Edition. N. Gregory Mankiw. ISBN 13: 978-0-538-45305-9. USA, textbook. 2012. Cengage Learning. 890 p.
2.	G. Mankiw. Principles of Macroeconomics (Mankiw's Principles of Economics). with MindTap, 8th Edition. USA. ISBN-13/ 978-9355734129. 511 p. Cengage India. 2022.
3.	Makroiqtisodiyot. Dasrlik. G'.E.Zaxidov, M.T.Asqarova, Z.A. Djumayev, L.F.Amirov, H.A. Hakimov. - T.: 2019. – 290 bet.
4.	Makroiqtisodiyot. N.M. Maxmudov, A.B. Shakarov, X.A. Ulashhev, J.A.Shakarov. - T.: 2022. – 450 bet.
5.	Ishmuxammedov A.E., Djumayev Z.A., Jumayev Q.X. Makroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.: 2005 y. 192 b., 29 b.
6.	N.Xolmatov. N.Imomova. «Makro va mikroiqtisodiyot» fanidan o‘quv qo‘llanma. – T.: ToshDSHI, 2020. – 268-b.
Qo‘shimcha adabiyotlar	
1.	Mirziyoyev SH.M. Tandiqiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2.	Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. - 56 b.
3.	Makroiqtisodiyot. Amaliy qo‘llanma. Masalalar, testlar, vaziyatlar. T.:2001 y.
4.	Xolmatov N., Imomova N. «Makroiqtisodiyot» fanidan o‘quv qo‘llanma. – T.: ToshDSHI, 2012, 152 bet.
5.	Экономическая теория: учебник / И.К. Станковская, И.А. Стрелец.- 5-е изд., перераб. и доп.–М.:Эксмо, 2010.- 480 стр.- (Полный курс MBA)
Internet saytlari	
1.	www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

2.	www.idm.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi
3.	www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi
4.	www.customs.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi
5.	www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
6.	www.cer.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi

MUNDARIJA

T/R MAZMUNI	BETLAR
1 ‘MAKROIQTISODIYOT’ FANINING PREDMETI VA OB’EKTI	5
2 MAKROIQTISODIY HOLATNI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR	13
3 YALPI TALAB VA YALPI TAKLIFGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR	22
4 ISTE’MOL, JAMG‘ARISH, INVESTISIYA FUNKSIYALARI VA ULARNING GRAFIKLARI	29
5 MAKROIQTISODIY BEQARORLIK, DAVRIY TEBRANISHLARNING TURLARI	37
6 ISHSIZLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI. ISHSIZLIKNING KO‘RINISHLARI	43
7 INFLYATSİYANING KELIB CHIQISH SABABLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	52
8 PUL TUSHUNCHASI VA PUL BOZORI. PUL MASSASI. PUL AGREGATLARI.	60
9 IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING MOHIYATI VA ZARURLIGI	66
10 PUL-KREDIT SIYOSATINING MAQSADLARI VA DASTAKLARI	72
11 FISKAL SIYOSATNING MOHIYATI VA USULLARI	80
12 IQTISODIY O‘SISHNING MOHIYATI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	88
	94

QAYDLAR UCHUN

MAKROIQTISODIYOT
fanidan
MASHQ va MASALALAR TO‘PLAMI
O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA

Tuzuvchi:

Imanova N.A. - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasи katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Sultanova L.Sh. O‘zbekiston Milliy Universiteti
“Makroiqtisodiyot” kafedrasи dotsenti, i.f.n.
Kamilova M.X. TDSHU “Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedrasи
dotsenti, i.f.n.

Ushbu o‘quv-ulubiy qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2025-yilning 20-martdagi 66-UM-sonlibuyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Bosishga ruxsat etildi:
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 6,25 b.t.
50 nusxada bosildi. Buyurtma №
Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20 uy